جديد

2026-yil 9-yanvar
№ 2 (106)
www.jadid.uz


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

O‘ZBEKISTON



Bir o‘lkaki,
tuprog‘ida oltin gullaydi,
Bir o‘lkaki,
qishlarida shivirlar bahor.
Bir o‘lkaki,
sal ko‘rmasa, quyosh sog‘inar...
Bir o‘lkaki,
g‘ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib,
bunda kuch guvullaydi...
O‘qi va sev!
Buning ismi hur O‘zbekiston!

Oybek

(7-sahifada o‘qing).

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI



TOMCHIDA QUYOSH

“Nuroniy” jamg‘armasi Toshkent shahar bo‘limi raisi Rustam KALONOV bilan suhbat

“Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi. Aynan mahalladagi yo‘l, suv, elektr va transport ta’minoti, bog‘cha, maktab va oilaviy poliklinikadagi shart-sharoitlarga qarab, odamlar islohotlarimizga baho beradi. Mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali biz mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go‘zal va obod qilish borasidagi ishlarni davom ettiramiz”.

Prezident Shavkat MIRZIYOYEVning
Oliy Majlisga va O‘zbekiston
xalqiga Murojaatnomasidan

– Rustam aka, mahallalarimizni nuroniylarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoshlar tarbiyasi, mahalla obodligi, jamoatchilik nazorati, ma’naviy muhitni shakllantirishda bevosita katta hayotiy va kasbiy tajribaga ega otaxon-u onaxonlarning o‘rni beqiyos...

– To‘g‘ri aytasiz, oilada ham, yurt taraqqiyotida ham nuroniy otaxon va onaxonlarning o‘rni alohida. Xabaringiz bor, o‘tgan yilning oxirida davlatimiz rahbari Toshkent shahri faollari bilan uchrashdi. Ochig‘i, bu uchrashuv unda qatnashganlar uchun juda katta saboq bo‘ldi. Uchrashuvda har bir mas’ulga o‘z yo‘nalishi bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. “Har biringiz bilib qo‘ying: Vatan mahalladan boshlanadi”, degan aniq va lo‘nda fikr aytildi. Bilasiz, shu kungacha ham mahalla va uning obodligi haqida tegishli hujjatlar imzolangan. Bu bejiz emas. Chunki mahalla yurtimizning qaynoq o‘chog‘i hisoblanadi.

Yurtimizga kelayotgan chet elliklar bilan xizmat yuzasidan suhbatlashishimizga to‘g‘ri keladi. Shunda ularning o‘zbek mahallalarida yashayotganlarning turmush tarzidan, mahalla tuzilmasining faoliyati va bunda nuroniylarning o‘rnidan hayratga tushganini ko‘p ko‘raman. Ayniqsa, oilalarning boshiga og‘ir kunlar tushganda yoki to‘y-hashamlarda mahalla odamlarining birlashishi, har qanday yordamga tayyor turishi ularning aqliga sig‘maydi, taajjublanadi.

Aksariyat chet mamlakatlarda oilalar, hatto bir oiladagi ota-ona, bola-chaqalarning o‘zaro aloqasi yo‘qligi, hamma o‘z boshiga yog‘gan qorni o‘zi kurashi, yaxshi-yomon kunlarni ham tanho o‘tkazishini bilamiz. Afsuski, bizda ham ko‘p qavatli uylarda o‘z qobig‘iga o‘ralib qolganlar yo‘q emas. Lekin bugun mahalla faollari bu holatga tomoshabin bo‘lib turgani yo‘q, barchaning mahallaga moslashishi, singib ketishida yordamini ayamayapti.

(Davomi 2-sahifada).

MUNOSABAT

ULUG‘BEK XAZINASI QAYTMOQDA

Yangi yil arafasida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Bu mamlakatimizda ilm-fan sohasini rivojlantirish yo‘lidagi yana bir katta qadam bo‘ldi.



Ahmadali ASQAROV,
akademik

Ushbu tarixiy hujjatda 2030-yilga qadar Fanlar akademiyasi va uning tizim tashkilotlarida yangi ilmiy ishlanmalar soni va tijoratlashtirishdan olinadigan mablag‘lar hajmi 3 baravarga; ilmiy xodimlar tarkibida yoshlar ulushi 60 foizgacha; akademiklar va professorlarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki 5 baravarga; xalqaro hamkorlikda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar soni 3 baravarga oshirilishi belgilandi.

Quvonarlisi, qarorda xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy diasporani O‘zbekiston ilm-faniga reintegratsiya qilish, Akademiya ilmiy muassasalarini raqobat tamoyili asosida moliyalashtirish, yoshlarning akademik fanlarda ishtirokini kuchaytirish uchun ularni rag‘batlantirish kabi zamon talab qilib turgan masalalar yechimi aks etgan.

Barcha zamonlarda ham eng buyuk kashfiyotlar davlat qo‘llab-quvvatlovi bilan yuzaga chiqqan. Bu esa mablag‘siz bo‘lmaydi, albatta. Endilikda ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, yosh olimlarni jalb qilish va strategik ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalishlarni barqaror moliyalashtirish maqsadida Fanlar akademiyasi jamg‘armasi tashkil etiladi va davlat byudjetidan har yili 80 milliard so‘m miqdorida mablag‘ ajratiladi.

Bu kabi qarorlardan katta avlod olimlarining quvonchi ko‘ksiga sig‘may ketdi. Chunki biz Fanlar akademiyasining inqiroz yoqasiga kelib qolgan yillariga guvoh bo‘ldik, og‘ir kunlarini boshimizdan o‘tkazdik. Aytish joizki, Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati tufayli milliy akademiyamiz qayta tirildi, akademiklar ko‘ksiga shabada tegib, qalbimizda kelajakka ishonch uyg‘ondi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Bundan to‘qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo‘lib ko‘rinardi. Joriy yilda esa tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Bunday yuksak natijalar zaminida ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lgan tadbirkorlarimiz, hazrati inson omili yotadi”, deya ta’kidladi. Ushbu yutuqlar davlatimiz rahbarining tinim bilmas sa’y-harakatlari tufayli ekanini biz akademiklar yaxshi bilamiz.

Bir vaqtlar akademiyaga davlatdan bir chimdim e’tibor bo‘lsa, deb yuqoriga ko‘z tikib turardik. O‘sha paytda ham ilm fidoyilari sohani tashlab ketmadi, o‘z yo‘nalishida qator yutuqlarga erishdi. Mana endi davlat rahbarining o‘zi Fanlar akademiyasiga e’tibor qaratib, maxsus hujjatlarni imzolamoqda. Bizga qolayotgani esa, shunga yarasha ijod qilish, innovatsion g‘oyalarni taqdim etish, nazariya va amaliyotni rivojlantirib, yurt taraqqiyoti, xalq farovonligi yo‘lida chin dildan xizmat qilishdir.

Prezidentimiz Murojaatnomada Mirzo Ulug‘bek hamda uning ilmiy yutuqlarini bejiz eslamadi. Markaziy Osiyoda Temuriylar davrida ilm-fan va olimlarga yuksak e’tibor bo‘lgan. Bugungi islohotlarni kuzatib ayta olamanki, o‘lkamizga Ulug‘bek xazinasi qaytmoqda. Bu xazina oltin-u javohir emas, albatta, ilm va ma’rifatdan iboratdir. Ushbu saodatli kunlarga guvoh bo‘layotganimdan shukronalarim bisyor.

Yangi yilda yangilanayotgan Fanlar akademiyasi yangi-yangi yutuqlarni taqdim etishiga tilakdoshmiz va bu yo‘lda qo‘limizdan kelganicha o‘z hissamizni qo‘shishga tayyormiz!

FAKT

- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Prokuratura organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi hamda prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga tabrik yo‘lladi.**
- **Xalqaro shaxmat federatsiyasi va “Norway Chess” 2026-yilda bo‘lib o‘tadigan “Total Chess World Championship Tour”ning ilk turniri “Total Chess 2026 Pilot” bahslarida ishtirok etadigan 16 nafar shaxmatchi nomini e’lon qildi. Ular orasida hamyurtimiz Nodirbek Abdusattorov ham bor.**
- **“Zakovat”ning 25 yillik yubileyi mavsumi finali bahsida Navoiy haqidagi savoli bilan 17 yoshli Muhammadjon Maxadaliyev yilning eng yaxshi bilimdoni deb topildi va elektromobil sohibiga aylandi.**
- **2025-yilda elektrotexnika sanoatida eksport hajmi 1,5 milliard dollarni tashkil etdi.**



MATEMATIKA – UVAFFAQIYAT ANBAYI

(3-sahifada o‘qing).

SURUR

SHATRANJDAN SHAXMATGACHA

So‘nggi yillarda O‘zbekiston sporti haqida gap ketganda, ko‘z oldimizda nafaqat shiddatli bokschilar yoki matonatli kurashchilarimiz, balki vazminlik bilan dona surib, dunyoning eng kuchli grossmeysterlarini shoshirib qo‘yayotgan navqiron shaxmatchilarimiz ham gavdalanadi. Bu bejiz emas. Zero, shaxmat – bu shunchaki o‘yin emas, bu – millatning intellektual quvvati, strategik fikrlash qobiliyati va sabr-toqatining ko‘zgusidir.



O‘tmishda shatranj deb atalgan bu ko‘hna o‘yin bizning yurtimizda azaldan ma’lum va mashhur bo‘lib, ko‘plab tarixiy va badiiy asarlarda, xususan, tarixchi Ibn Arabshoh “Ajoib ul-maqdur fi axbori Temur” (“Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari”) kitobida shunday yozadi: “(Amir Temur) o‘z fikrini peshlash maqsadida muttasil shatranj o‘ynardi. Uning himmati kichik shatranj (o‘ynash)-dan oliy bo‘lib, katta shatranj o‘ynardi. Bu shatranj taxtasining eni o‘n bir, bo‘yi o‘n (xona)dan iborat edi…”

Bugungi kunda shaxmat sohasidagi yutuqlarimiz mamlakatimizning xalqaro obro‘sini yangi bosqichga olib chiqmoqda. O‘zbekistonlik shaxmatchilar dunyo sahnasida porlayotgani, jamoaviy musobaqalar, xususan, Olimpiada va Osiyo chempionatlarida kuchli o‘rinlarni egallayotgani yurtimizda shaxmatni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarining ijobiy samarasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yurtimizda shaxmat rivojini yangi bosqichga olib chiqishda muhim rol o‘ynadi.

(Davomi 3-sahifada).

TOMCHIDA QUYOSH

“Nuroniy” jamg‘armasi Toshkent shahar bo‘limi raisi Rustam KALONOV bilan suhbat





Boshlanishi 1-sahifada.

Bugun mahallada hech kim o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolishiga yo‘l qo‘ymaymiz.

“Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak”.

Murojaatnomadan

Ilgari keksa odam biror nojo‘ya ish qilayotgan bolani ko‘rsa, “Kimning bolasisan? Nima qilyapsan?” deb savol berardi. “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” maqolining haqiqiy amaliy ko‘rinishi edi bu. Ochig‘i, bu an’anadan yiroqlashib boryapmiz. “Birovning bolasi bilan nima ishim bor”, degan kayfiyatga o‘tish juda xavfli. Chunki zamon shiddatli va umumiy, bugun bir bolada illat paydo bo‘lsa, ertaga boshqa oilaga ham kirib bormaydi, deb hech kim kafolat bera olmaydi. “Suyunchi” filmida: “Kim begona ekan buvingga bu mahallada? Ko‘rsat, o‘sha begonalarni”, deb aytiladi-ku.

Yana bir gap. Ayrim yoshlardan “Mahallangning nomi nima?” yoki “Nega bunday atalishini bilasanmi?” deb so‘rasangiz, aksariyati “bilmayman” deb javob beradi. Ilgari buva-buvilarimiz tanchaning atrofida gardish patnisga turshak-mayizni tashlab qo‘yib, nevaralariga avlod-ajdodlari haqida gapirib berishardi. Keksalarimiz ko‘cha-ko‘yda yurganida, atrofida yuz berayotgan voqealarga befarq emasdi. Yaxshi ishlarga ham, yomonlikka ham munosabatlari bor edi.

Esimda bor, onam pensiyaga chiqqanlaridan keyin kechki salqin paytlari eshigimiz oldida kursichaga o‘tirib, o‘tgan-ketgan bilan suhbatlashardi. Begona odam ko‘rinsa, albatta, kimligini surishtirardi. Har bir mahallada kosiblik, zargarlik, misgarlik degandek, biror kasb-hunar bilan shug‘ullanuvchi guruhlar bo‘lardi. Albatta, bugun davr o‘zgardi, odamlar o‘zgardi, kasb-hunarlar ham o‘ziga xos rivojlanyapti. Nazarimda, bugun mahalla rahbarlarining ham ish tutumi, odamlar bilan munosabati davrga hamohang bo‘lishi kerak.

Hozir ko‘pqavatli uylarda yashovchi aholi bilan ishlashda muammolar uchrab turibdi. Ochig‘i, bu uylarda o‘zaro befarqlik, bir-birini kamsitish kabi illatlar borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Bunday holatlar bizning jamiyatga yarashmaydi. Bu borada Sergelida qurib foydalanishga topshirilayotgan mahallalarni ibrat qilib ko‘rsatsa arziydi. Ularda nuroniylar, mahalla faollari bosh bo‘lib, aholini o‘zaro birlashtiradigan ibratli tadbirlar o‘tkazilyapti.

2025-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, aholi, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik, tovlamachilik, firibgarlik, ajrashish kabi illatlar ancha kamaygan. Bunda, shubhasiz, mahallada obro‘ va nufuzga ega bo‘lgan nuroniylar, dono buvijonlarning jonkuyarligi muhim rol o‘ynayapti.

Shahrimizdagi 585 ta mahallaning har bir nuroniysiga 10 ta oilaning axloqi buzilgan, yomon yo‘lga kirib ketgan farzandlari biriktirilgan. Albatta, bu nuroniylar bir o‘zi emas, yonida bir-ikki faol shaxslar bilan ularning muammolarini hal qilishda yordam berishyapti.

– Shubhasiz, nuroniylar, mahalla yetakchilarining faolliklari bugungi kunda o‘z natijalarini berayotgani hammamizni quvontiradi. Poytaxtda turli millat va e’tiqod vakillari jamlangan mahallalar ham talaygina. Ular bilan ishlash tarzi qanday?

– Mahalla o‘n yil yo yuz yillik tuzilma emas. O‘lkamizda bu birlik tarixi ming yilliklarga borib taqaladi. Buyuk Ipak yo‘lining muhim bo‘g‘inida joylashgan, azaldan bag‘rikeng va tinchliksevar bo‘lgan xalqimiz mahallalarga birlashar ekan, azaldan u yerda tillar, dinlar, qarashlar xilma-xilligi bo‘lgan. Mahallada har kim avvalo insoniyligi uchun hurmat qilinadi. Muqaddas dinimiz va milliy qadriyatlarimiz ham do‘stlik va uyushqoqlikni targ‘ib qiladi.

O‘zbekiston – ko‘pmillatli mamlakat. Faqat yangi ko‘chib kelganlar va yoshlarda mahallada yashashning o‘ziga xos tomonlarini tushunishda biroz qiyinchilik tug‘ilishi mumkin. Ilgaridan yashab kelayotganlar alla-qachon urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni yaxshi bilib olgan. Hozir ko‘plari tilimizni suv qilib ichib yuborgan. Ochig‘i, hashar, o‘zaro yordam tadbirlarida birinchilardan bo‘lib qo‘l cho‘zadiganlar ham aynan do‘st va qardosh millat vakillari. Odamgarchilikning millatga aloqasi yo‘q. Bu oilaga, undagi ta’lim-tarbiyaga bog‘liq.

“Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo‘lishi tabiiy. Bu – demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo, millati, tili va dinidan qat’i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug‘ bir g‘oya bor. U ham bo‘lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir. Mana shunday buyuk maqsadga erishishda mahalla tizimining o‘rni va ta’siri beqiyos. Chunki, mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo‘ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi”.

Murojaatnomadan

– To‘qqiz mingdan ziyod mahallada, avvalo, mehr-oqibat, hamjihatlik, adolat va tarbiya muhitini shakllantirish kabi dolzarb masalalar katta hayotiy tajribaga ega mahalla raislari va faollari, nuroniylar, xotin-qizlar, yoshlar, ziyolilar, tadbirkorlar, Vatan posbonlari – butun xalqimiz zimmasiga yuklandi. Ana shu jabhada, nazarimda, nuroniylar oldingi safda qayd etilgani bejiz emas.

– Ha. Yangi yil, shubhasiz, yangi rejalar, yangi vazifalar bilan kirib keladi. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” xalqimiz ruhini ko‘tarish bilan birga, respublikamiz mahallalarida faoliyat yuritayotgan nuroniylarimiz, mahalla faollari oldiga katta vazifalarni ham qo‘ydi.

Xalqimizda “Yotib yeganga tog‘ ham chidamaydi” degan maqol borligini eslatib qo‘ymoqchiman. Ya’ni hammamizning oldimizda yurtimiz iqtisodini yanada ko‘tarishga, xalqimiz turmush farovonligini oshirishga hissa qo‘shish vazifasi turibdi. Bu yo‘lda nuroniylarimiz, oqsoqollarimiz, yosh faollarimiz – hamma birlashib harakat qilishi kerak.

Bugun nuroniylarimiz, faollarimiz odamlarning nima dardi bor, ularni qiynayotgan narsa nima, yoshlarga, yosh oilalarga qanday yordam kerak, degan savollar ustida o‘ylanib, ularga javob topish yo‘llarini izlashlari, jillaqursa, maslahatlari bilan yordam berishlari lozim. Chunki mahallaboshi nuroniylar hisoblanadi.

Eslasangiz, biz yoshi ulug‘lar ko‘cha boshida ko‘rinsa, o‘yin-u yumushimizdan to‘xtab, yo‘l chetiga chiqib, solim turardik. Oilaning kattalari – otaxonlar, onalar dasturxon atrofiga kelib o‘tirmaguncha, qozon ochilmasdi. Barcha tadbirlarda mahalladagi obro‘-e’tiborli otaxon duoyi fotiha qilardi. Menimcha, hozir ham ko‘p joylarda shunday va shunday bo‘lib qolishi kerak. Bu kabi udumlarimiz asrlar davomida o‘zini oqlab kelgan. Bizning vazifamiz mavjud an’analarimizni davom ettirishga bosh-qosh bo‘lishdan iborat.

An’analarimizni davom ettirish maqsadida muntazam ravishda uch avlod uchrashuvlarini o‘tkazib turamiz. Uchrashuvlarga ko‘proq yoshlarni jalb etamiz. Shu bilan birga, mahallada olib borilayotgan ishlarni muntazam kuzatib boramiz. Deyarli barcha tadbirda nuroniylarimiz, mahalla oqsoqollari bosh-qosh. Ishonasizmi, tadbirga kelayotgan keksalarni ko‘rib, yoshlar ham qatnashishni xohlab qoladi. Bekorga nuroniy deyishmaydi, axir, yuz-ko‘zlarida nur bor ularning.

– Boya xorijliklarning mahalla institutimizga qiziqishini ta’kidladingiz. Shu haqda batafsilroq gaplashsak. Zero, oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q, deyishadi-ku.

– Birinchi navbatda etnograflar, ijtimoiy masalalar bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar mahallalarga olib borishni so‘rashadi. Odatimiz bo‘yicha bir piyola choy, dasturxon ustida suhbatlashamiz, ko‘cha-ko‘ylarni aylantiramiz, odamlar bilan ko‘rishadi. Fuqarolar bilan muloqotlardan, mahalla aylanib ko‘rganlaridan so‘ng amalga oshirilayotgan ishlarning natijasiga iqror bo‘ladi. Qanday delegatsiya kelishidan qat’i nazar, sayohatining bir kuni, albatta, mahallalarda o‘tadi. Ayniqsa, yaponlar jiddiy qiziqadi. Fransiya, Germaniya, Boltiqbo‘yi mamlakatlaridan kelganlar ham mahallalarda bo‘lishni istaydi.

Eng muhimi, ular ko‘rgan-bilganlari asosida davlatning fuqarolar uchun qilayotgan sa’y-harakatlari, amallari to‘g‘ri ekaniga amin bo‘ladi. Tomchida quyosh aks etadi, deydilar-ku. Ana shu tomchilar daryolar, dengizlar, ummonlarni tashkil qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz o‘tgan yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili” deb atab, “Yashil makon” umummilliy harakatiga yangicha ruh va ma’no berdi. Biz, mahalla ahli uchun bu iqtisodiy siyosat ayni muddaodir. Chunki mahalla degan so‘zning o‘zagida bog‘-u bo‘ston, farovonlik va obodlik degan tushuncha yotibdi. Biz bu borada ham belni bog‘lab, Vatanimizni gullatishga doimiy hissamizni karrasiga ko‘paytirishga kirishganmiz.

“Deputatlarga o‘z okrugidagi muammolarni hal etish uchun 500 milliard so‘m, har bir deputatga 3,3 milliard so‘mdan beryapmiz. Bu borada “yashil hudud”, “yashil bog‘” yaratish bo‘yicha har bir deputatning tashabbusiga qo‘shimcha 330 million so‘mdan yo‘naltiramiz. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kiramiz”.

Murojaatnomadan

– Mahalla haqida gap ketganda, albatta, marosimlarni chetlab o‘ta olmaymiz. To‘y-hasham degan ikki so‘z va uning ortidagi ikki mingta mashmasha hamda ularni tartibga solish bo‘yicha tajribangizdan kelib chiqib fikr bildirsangiz.

– To‘ylarni ixchamlashtirish, ma’raka va boshqa oilaviy tadbirlarni tartibga solish ham bevosita mahallaga tegishli masala. Muhimi, odamlarimiz dunyoqarashida ijobiy o‘zgarish bor. Ayniqsa, yoshlar bilim doirasi kengayib borayotgani hamda keng ko‘lamli targ‘ibotlar natijasi o‘laroq isrof va mantiqsiz ishlardan o‘zini olib qochyapti. Endi ular hech kimga naf bermaydigan xarajatlardan ko‘ra, pulni jamg‘arib ota-onasini sihatgohlarga, ziyoratlarga yubormoqda. Kelin-kuyov to‘ydan tejalgan pulni ta’limga, sayohatga va kelajakka yo‘naltirmoqda.

Kattalar ham yoshlardagi bu o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlaydi. O‘tgan yilning oktyabr oyida Yunusobodning mahallalaridan birida onaxon bosh bo‘lib, nevarasiga 50 odam bilan to‘y qildi. Ochig‘i, hamma hayron qoldi. Hammay oq ozoda, tartibli, chiroyli bir tarzda o‘tdi to‘y. Mana bu ibrat, mana bu shaxsiy namuna deyiladi!

Agar mol-davlati oshib-toshib ketayotgan bo‘lsa, shuni keraksiz tomoshalarga emas, yordamga muhtoj oilalarga, bemorlarga, talabalarga beraylik, deb yo‘naltiryapmiz. Bu jihatdan mahallaning, nuroniylarning roli muhim. Chunki biror rahbar gapirsa, “konyuktura” dardi qo‘zib, “Pulimga xo‘jayinmisan? Bir-ikki so‘m cho‘ntagimga solib qo‘yganmiding?” deyishlari mumkin. Lekin keksalarning gapini to‘g‘ri qabul qiladi.

– Demak, gaplaringizdan kelib chiqadigan bo‘lsak, bugun mahallalar filtr vazifasini ham bajaryapti.

– Shunday. “O‘tmish bisotimiz shaksiz buyuk, ammo orasida bu kungi turmushga yaraydiganlari ham, oyog‘imizga kishan bo‘lib, bizni chohga sudraydiganlari ham bor”, degan gapni o‘qidim yaqinda. Ana shu bisotning saragini sarakka, puchagini puchakka ajratish – mahallaning ishi. Qolaversa, yurtimizda kechayotgan siyosiy jarayonlar, islohotlar mohiyatini odamlarga yetkazish ham bizning burchimiz.

Mana, bu yil mahallaga bog‘liq ishlar bilan keng qamrovda shug‘ullanish imkoni yaratildi. Vatan xizmatiga doim shaymiz.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

Gulchehra UMAROVA
suhbatlashdi.

14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI



ASKAR BOBOSI

Tarixga nazar tashlasak, millatimizning salkam bir yarim asrlik istibdod domiga tushishiga Turkiston zaminidagi ikki xonlik va bir amirlik boshida o‘tirgan hukmdorlarning harbiy salohiyat masalasiga e’tiborsizlik bilan qaragani, yov tashqarida fursat poylab turgan kezlarda ham arzimagan bahonalar bilan bir-birining ustiga qo‘shin tortib, yurtda – millat orasida parokandalikni yuzaga keltirgani, qo‘shin tuzish, uni saqlash, janglarga hozirlash borasida necha ming yillik an’ana va tajribalar unutilgani sabab bo‘lgani ayni tarixiy haqiqatdir.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, milliy qo‘shinni shakllantirish masalasi birlamchi vazifaga aylandi. Bunda avvalo ofitserlar tarkibini to‘la shakllantirishga alohida e’tibor berildi, shu maqsadda harbiy sohaning barcha turlari bo‘yicha komandirlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari ochildi, harbiy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Bundan tashqari, bir qator viloyatlarda serjantlar maktabi ochilib, harbiy sohaga iqtidori bor yoshlar o‘qitilib, ular harbiy qismlarda eng asosiy bo‘g‘in – harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlarni har tomonlama puxta tayyorlash, zamonaviy harbiy amaliyotlarda toblash jarayoniga bosh bo‘ldi. Faqat bugina emas. Bugun Yangi O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan “Temurbeklar maktabi”, “Jaloliddin maktabi”ga qattiq sinov ostida qabul qilinayotgan har bir o‘smir kelgusida Vatanimiz Qurolli Kuchlarining ofitserlar qatlamini muntazam to‘ldirib borishda katta ahamiyat kasb etadi.

Qurolli Kuchlarimiz eng zamonaviy qurollar bilan to‘la ta’minlangani alohida mavzu. Sohada olib borilayotgan islohotlar samarasini milliy armiyamiz xalqaro miqyosda o‘tkazilayotgan harbiy musobaqalarda hamisha eng oldingi o‘rinlarni egallab kelayotganida yaqqol ko‘ramiz.

Jiyanimning o‘g‘li vodiydagi nufuzli harbiy qismda xizmatni o‘tab qaytdi. Kuni kecha maktabni tamomlagan o‘smir bir yilda haqiqiy askarga aylanibdi. Uning har oyda havodan desant tushirish amaliyotlarida qatnashgani, parashyutda sakraganini eshitib, hayratlandik. Negaki, o‘tgan asrning yetmishinchi yillari adog‘ida sobiq ittifoqning chekka bir hududidagi qurilish qismida harbiy xizmatni o‘taganimizda, hatto biror marta qo‘limizga miltiq ushlab ko‘rmaganmiz ikki yillik armiya qurilish maydonlarida g‘isht tashish, beton quyish bilan o‘tib ketgan.

O‘tgan yili 18-aprelda poytaxtga otlandim. Hazorasp poyezd bekatida 88 yoshli amakim bilan uchrashib qoldim. U singlisi, kelini bilan Farg‘onaga xizmatga yuborilgan nevarasining harbiy qasamyodida qatnashish uchun ketayotgan ekan. Shu kuni “Xiva – Toshkent” yo‘lovchi poyezdiga chiqqanlarning aksari aynan farzandlari harbiy qasamyod qabul qilishi munosabati bilan chaqirilgan ota-onalar edi.

Nevarasining harbiy qasamyodida qatnashib qaytgan amakim turli davralarda askarlarga yaratilgan sharoitlar haqida uzoq vaqt gapirib yurdi.


“Zamon juda ilgarilab ketgan ekan, – der edi amakim. – Bizlar xizmat qilgan davr bilan hozirgi davrni taqqoslasang, yer bilan osmoncha farqi bor. Harbiy qasamyod qabul qilingandan so‘ng nevaram bilan askarlar oshxonasida birga ovqatlandik. Oshxonasi eski zamonlarning restoranlaridan ham zo‘r ekan! Birinchi, ikkinchi taomlar, choy, non va turli salatlarni askarlar o‘zlari tanlab olar ekan. Ovqatlarning mazasi, to‘yimliligini ayting! Yashaydigan binolaridagi shart-sharoitlarni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi. Barcha sharoit bor. Armiya emas, kurort deysiz!”

O‘tgan asrning elliginchi yillarida harbiy xizmatni o‘tagan amakimning hayratlarini tushunish mumkin.

Bir paytlar armiyaga bormaslik uchun tanish-bilishlarni ishga solish kuzatilgan bo‘lsa, bugun, aksincha, harbiy xizmatga borish uchun tanish-bilish topishga intiladiganlar bor. Sababi, bugun harbiy xizmat sharafli vazifaga, mard o‘g‘lonlarning sinov maydoniga aylangan. Harbiy xizmatni a’lo darajada o‘tagan yigitlar oliygohlarga imtiyoz asosida qabul qilinishi mamlakatimizda harbiy sohaga, shu sohaga daxldor fuqarolarga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yana bir yuksak ko‘rinishidir.

Mustaqil davlatimiz qisqa fursatda o‘zining qudratli armiyasiga ega bo‘ldi. Bugun Qurolli Kuchlarimiz mamlakat chegaralarini mustahkam qo‘riqlab turibdi – bir vaqtlar jadid bobolarimiz orzu qilgan harbiy salohiyatga ega bo‘lganimiz bilan faxrlansak arziydi.

Ro‘zimboy HASAN



“Vatan!”, “Vatan!” deya jonim
tanimdan chiqsa ravon,
Manga na g‘am, qolur
avlodim(g)a uy-u Vatanim.

Abdulla AVLONIY

ILM YO‘LI

MATEMATIKA – MUVAFFAQIYAT MANBAYI

Suhbatdoshimiz O‘zbekiston Fanlar akademiyasi va Butunjahon Fanlar akademiyasi akademigi, Davlat mukofoti laureati O‘tkir Roziqov ayni paytda O‘zFA V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori o‘rinbosari sifatida faoliyat olib bormoqda. U qariyb qirq yillik faoliyati davomida matematik analiz, algebra va ehtimollar nazariyasining zamonaviy usullari bilan fizik va biologik sistemalarning termodinamikasi va dinamikasi nazariyalarini yaratib, ularni tabiiy fanlarga qo‘llashda muhim natijalarga erishgan. Shu bois, bir qator xalqaro mukofotlarni ham qo‘lga kiritgan. 300 dan ziyod ilmiy ishlari xorij hamda respublikadagi nufuzli jurnallarda chop etilgan. Uning rahbarligida 19 nafar fan nomzodi va 5 nafar fan doktori ilmiy ish yoqlagan.

– Buyuk ajdodimiz Mirzo Ulug‘bek fikricha, “Matematika (riyoziyot) g‘oyat yuksak bir fanki, unda bir olam mo‘jiza yotadi”. “Matematika – fanlarning eng birinchisi hamda barcha fanlar uchun foydali va zarurdir”, deb yozadi ingliz faylasufi Bekon. Shu ma’noda matematika boshqa fanlar va jamiyat taraqqiyotida qanday rol o‘ynaydi?

– Matematika barcha tabiiy fanlarning fundamental asosi va umumiy tili hisoblanadi. Fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, iqtisodiyot, hatto ijtimoiy fanlarda yuz berayotgan jarayonlar matematik modellar orqali ifodalanadi va chuqur tahlil qilinadi. Masalan, zamonaviy biologiyada genetik tarmoqlar, populyatsiya dinamikasi, epidemiologik jarayonlarni matematik tenglamalar va ehtimollik modellarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tibbiyotda esa diagnostika, tibbiy tasvirlarni qayta ishlash, kasalliklarning tarqalishini bashorat qilish bevosita matematik algoritmlarga tayangan. Mana shularning barchasi zamirida matematik nazariyalar mavjud.

Bugun ko‘p gapirilayotgan sun’iy idrok (SI)ni olaylik. Go‘yoki matematika chetga surilib, SI alohida fan bo‘lib ketgandek. Aslida, uning poydevorida ham matematika turibdi. Hammasi matematik yondashuv orqali amalga oshadi. “Google” dunyodagi eng rivojlangan qidiruv tizimlaridan biri. Uni yaratganlar – matematiklar. Ularning algoritmlari ehtimollar nazariyasidagi Markov zanjirlari degan nazariyaga asoslangan. Men aytayotgan ma’lumot besh yil oldingisi, balki hozir undan ham ko‘proqdir, lekin o‘sha paytning o‘zida bu tizim bir daqiqada 37 ming dollar foyda keltirgan. Bu matematikaning kuchi qanchalik katta ekanligiga bir misoldir.

Bugungi kunda davlat tomonidan ta’limga, ilm-fanga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki rivojlanishni tezlashtirish, iqtisodiy daromadlarni oshirish uchun fan rivojlanishi kerak. Bu rivojlanishning asosi – matematika. Shuning uchun ham, Prezidentimizning dastlabki qarorlaridan biri matematika faniga, Matematika instituti faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan edi. 2019-yilda birinchi bo‘lib matematika alohida e’tibor markaziga qo‘yildi. Natijasini yildan yilga o‘sib borayotgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar, olimlarning ilmiy-amaliy yutuqlari, yoshlarning xalqaro olimpiadalardagi g‘alabasida ko‘rib turibmiz.

– Ko‘pchilik matematikani murakkab fan deb hisoblaydi va raqamlar bilan kelisha olmasligini aytadi. Yana boshqalar esa “matematikani bilmasdan ham yashasa bo‘ladi”, “matematika kerak emas”, degan fikrlarni aytadi.

– Matematikaga nisbatan “murakkab fan” degan qarash asosan noto‘g‘ri ta’limiy tajriba va psixologik to‘siqlar natijasidir. Agar bola maktab davrida matematikani tushunmasdan yodlashga majbur bo‘lsa, unda bu fan qo‘rquv va ishonchsizlik manbayiga aylanadi. Natijada “men raqamlar bilan kelisha olmayman”, degan noto‘g‘ri tasavvur shakllanadi.

Masalan, boshlang‘ich sinf matematikasida o‘quvchining tushunishi va bajarishi qiyin bo‘lgan amal – bo‘lish amalidir. Bu amalni o‘quvchi o‘rganadi, lekin yetmasa, nol berish, nol berib vergul ajratish degan joylarini hayot bilan bog‘lash haqida na o‘qituvchi, na o‘quvchi qayg‘uradi. Bo‘lish mavzusidan boshlab sinfdagi ko‘pchilik o‘quvchilarda matematikaga qiziqish so‘na boshlaydi. Chunki bu amalda ishlatiladigan usul hayotimizga aloqasi yo‘qdek.

Aslida, matematika mantiqiy fikrlashni o‘rgatuvchi, inson tafakkurini tartibga soluvchi fan. U iste’dodlilar uchungina emas, balki mehnat qilishga va o‘ylashga tayyor bo‘lgan har bir inson uchun ochiq. Matematikani hayotiy misollar, mantiqiy o‘yinlar, real muammolar orqali o‘rgatish bu munosabatni tubdan o‘zgartirishi mumkin.

Kundalik turmushda matematika insonni tejamkorlikka, mas’uliyatga va kelajakni oldindan ko‘ra bilishga o‘rgatadi. Oila barqarorligi ko‘p jihatdan



ana shu hisob-kitobli va oqilona yondashuvga bog‘liq. Etikdo‘z bo‘lishi mumkin, duradgor bo‘lishi mumkin, haydovchi bo‘lishi mumkin – qanday kasb bo‘lishidan qat’i nazar, agar unda matematik fikrlash bo‘lmasa, u o‘z kasbida mukammal bo‘la olmaydi. Matematik mantiqqa tayangan odam esa, albatta, o‘z sohasida yaxshi mutaxassis bo‘ladi. Chunki matematik fikrlashga ega inson har qanday sohada o‘zini ko‘rsata oladi.

Hozir nafaqat maktabda, oliy ta’limda ham bu masala dolzarb. Prezident qarori bilan institutimizda matematika ta’limini rivojlantirish va muvofiqlashtirish bo‘yicha laboratoriya tashkil qilingan. Respublikadagi barcha matematika darsliklari va adabiyotlari bizning institutda ekspertizadan o‘tkaziladi. Men kitob yozayotgan ustozlarga doim aytaman: masalan, chiziqli algebra bo‘yicha kitob yozsangiz, har bir mavzuning tagiga kamida bitta amaliy tatbiqini ham yozing. Topologik fazo, chiziqli fazo kabi tushunchalar juda abstrakt. Agar talaba ular qayerda va qanday masalalarda qo‘llanishini bilmasa, fan unga begona bo‘lib qoladi.

– Matematika instituti joylashgan bino betakror me’moriy yechim asosida bunyod etilgan. Bu jihatdan uncha-muncha xalqaro ilm dargohlari ham havas qilsa arziydi. Ana shu muhtasham dargohda ichki mazmun qanday, bugungi kunda qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

– Institutimizning faxrlanadigan jihatlaridan biri: bizda dunyo miqyosida tan olingan ilmiy maktablar mavjud. Ehtimollar nazariyasi, matematik analiz, differensial tenglamalar, algebra, matematik fizika yo‘nalishlarida xalqaro miqyosda tanilgan ilmiy maktablarimiz bor.

Bugungi kunda Matematika institutining moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, yangi binolar barpo etildi, olimlarning oylik maoshlari bir necha bor oshirildi. Ana shu qo‘llab-quvvatlashlar natijasida hozirda institutimiz xalqaro miqyosda tanilgan ilmiy markazga aylandi. Masalan, institut olimlari har yili kamida 200 ta ilmiy maqolani nufuzli xalqaro manbalarda chop etadi. Bundan tashqari, monografiyalarimiz xorijda, eng mashhur nashriyotlarda chop etilmoqda. Institutimizning uch nafar professori Butunjahon fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi.

Shuningdek, bizda ko‘plab xalqaro konferensiyalar o‘tkaziladi. Xitoy, AQSH, Yevropa davlatlari bilan ilmiy aloqalarimiz mustahkamlandi. Har yili institutimizdan kamida 10-15 nafar olim xorijga borib, ilmiy hamkorliklarda ishtirok etadi. Institutimiz matematikani xalqaro standartlar asosida rivojlantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu yondashuv natijasida yutuqlarimiz ham shunga yarasha bo‘lyapti.

Bizning vazifamiz faqat yangi teorema isbotlash yoki yangi natija chiqarish bilangina cheklanmaydi. Agar dunyoning biror ilmiy markazida matematikaning ma’lum bir yo‘nalishida yangi teorema isbotlangan bo‘lsa, uni o‘rganish va o‘rgatish ham bizning vazifamizga kiradi. Chunki zamonaviy matematika bilan shug‘ullanish uchun o‘zimiz yangilik qilishimiz, boshqalarning yutuqlarini ham chuqur anglashimiz kerak. Dunyo fanining talablarini bilish va ularga mos ishlash zarur.

Albatta, bu yutuqlarning barchasi davlatimiz tomonidan yaratilgan sharoitlar, ilm-fanga bo‘lgan e’tibor natijasidir. Biz esa ana shu ishonchni oqlash, ilmiy natijalar bilan javob berishga harakat qilib kelyapmiz.

– Ma’lumotlarga qaraganda, siz yozgan kitoblar dunyoning 200 dan ortiq universitetida ilmiy faoliyat uchun qo‘llanar ekan, asarlaringizdan 4 mingga yaqin iqtibos olingan – bu katta yutuq. Shunday katta natijalardan o‘zingizning ko‘nglingiz to‘ladimi?

– Men hech qachon muvaffaqiyatlarni oxirgi nuqta, “mana endi bo‘ldi”, deb qabul qilmayman. Aksincha, ularning barchasini keyingi yutuqlar uchun navbatdagi pillapoya, yangi bosqich, yangi mas’uliyat deb bilaman. Yutuq insonni to‘xtatishi emas, yanada oldinga undashi kerak, deb o‘ylayman.

Kitoblarimning xorijda o‘qilishiga kelsak, buning birinchi sababi – ularning ingliz tilida yozilganidadir. Bugungi kunda matematika butun dunyoda asosan ingliz tilida o‘qitiladi. Hatto rus tili ham bu darajada global ahamiyatga ega emas. Ingliz tili esa universal ilmiy tilga aylangan.

Ikkinchi muhim sabab – kitoblarimning nufuzli xalqaro nashriyotlarda chop etilganidadir. Masalan, Singapurdagi “World Scientific Publishing” nashriyoti bilan hamkorlikda chop etilgan kitoblarimiz bor. 2025-yilda chiqqan kitobimiz “Gibbs measures in machine learning”, ya’ni sun’iy intellektning eng zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “machine learning” bo‘limiga bag‘ishlangan. Bu nashriyot chop etgan kitoblarni dunyoning yetakchi ilmiy markazlari sotib oladi va faol foydalanadi.

Masalan, Fransiyada matematika bo‘yicha dunyodagi eng nufuzli ilmiy markazlardan biri joylashgan – “Institute of Advanced Scientific Studies”. Bu institutda doimiy ishlaydigan professorlar soni 20 nafar bo‘lsa-da, har yili dunyoning eng kuchli matematiklarini hamkorlikka taklif qiladi. Mening baxtim shuki, bu institutda to‘rt marta bo‘lganman va har safar to‘rt oydan ishlab, yetakchi olimlar bilan birga ilmiy faoliyat olib borganman.

Bir tomondan, bu juda katta zavq bag‘ishlaydi, ikkinchi tomondan esa yanada mas’uliyat yuklaydi, ruhlantiradi. Bu yutuqlarning yana bir muhim tomoni bor. Masalan, 2013-yilda chiqqan kitobimni ochsangiz, muallif nomi ostida “Institute of Mathematics, Uzbekistan” deb yozilganini ko‘rasiz. Ana shu jihati men uchun juda muhim. Bu so‘zlar zamonaviy matematika sohasida o‘zbek olimlari ham faol ishtirok etayotgani, jahon faniga o‘z hissasini qo‘shayotganining dalilidir. Kitob sof matematika haqida bo‘lsa ham, uni qo‘lga olgan har bir o‘quvchi yoki tadqiqotchi “O‘zbekiston” degan so‘zni ko‘radi. Menimcha, bu nafaqat institutimiz, umuman, O‘zbekiston fanini dunyoga tanitishda juda katta ahamiyatga ega. Inson o‘z mehnatining natijalari e’tirof etilganidan mamnun bo‘ladi.

– Ilmiy faoliyatingizda burilish yasagan eng muhim davr yoki voqea qaysi edi?

– Avvalo, 2002-yil boshida xalqaro ilmiy markazlarda olib borgan tadqiqotlarim ilmiy dunyoqarashimni tubdan o‘zgartirdi. Yetakchi xorijiy olimlar bilan yaqin hamkorlik, zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan tanishish, mustaqil ilmiy fikrlash va yangi yo‘nalishlarni shakllantirish aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Bu tajriba mening keyingi ilmiy faoliyatim uchun mustahkam va barqaror asos bo‘lib xizmat qildi.

Biroq, o‘zbek olimlari, xususan, shaxsiy ilmiy faoliyatimdagi eng tub va ta’sirchan burilish Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans g‘oyalari bilan bevosita bog‘liq.

Fanlar akademiyasining qayta tiklanishi, ilm-fanga e’tiborning keskin oshishi, olimlar uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ilmiy muhitni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Aynan shu davrda ilmiy izlanishlarim uchun yangi sur’at, yangi mazmun va keng istiqbol paydo bo‘ldi. Shu ma’noda, bu islohotlar ilmiy faoliyatimni yanada chuqurlashtirish va uni xalqaro miqyosda rivojlantirishga kuchli turtki berdi.

– Qimmatli vaqtingizni ayamaganingiz uchun tashakkur! Sermazmun suhbatimiz mushtariylarimiz ko‘nglidan joy egallaydi, degan umiddaman.

Suhbatdosh:
Vasila HABIBULLAYEVA

Boshlanishi 1-sahifada.

SHATRANJDAN SHAXMATGACHA

Qarorda “Maktabda shaxmat” loyihasini amalga oshirish, shaxmatga o‘qitish tizimini yanada rivojlantirish, iqtidorli yosh shaxmatchilarni tanlash va saralab olish tizimini tubdan takomillashtirish, imkoniyati cheklangan shaxmatchilarni qo‘llab-quvvatlash, shaxmat infratuzilmasini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, bolalar-o‘smirlar shaxmat maktablarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil qilish va xalqaro talablarga moslashtirish, sohada malakali mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, yuksak natijalarga erishgan trener va hakamlar hamda shaxmatchilarni rag‘batlantirish kabi dolzarb maqsadlar ko‘zda tutilgan edi. Shu bois, o‘zbek shaxmat maktabining bugungi yutuqlari tasodifiy emas, desak ayni haqiqatdir.

Jahon kubogi musobaqalarida mahorat ko‘rsatgan Javohir Sindarovning muvaffaqiyati butun dunyo shaxmat jamoatchiligini hayratda qoldirdi. Uning muayyan bosqichlardagi rekordlar va natijalar bo‘yicha eng yosh Jahon kubogi sohibi sifatida e’tirof etilishi Yangi O‘zbekiston yoshlarining yuksak salohiyatidan dalolat beradi. Javohir kabi yoshlarning g‘alabasi shuni ko‘rsatadiki, shaxmatda yosh chegarasi tobora qisqarib bormoqda, intellektual jang maydonida esa bilim va shijoat har qanday tajribadan ustun kela oladi.

Shaxmat bo‘yicha yutuqlarimizning bardavomligi 2025-yil dekabr oyida 9–17 yoshli shaxmatchilar o‘rtasida o‘tkazilgan jahon chempionatida yana bir bor isbotlandi. “Rapid” va “blits” yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan ushbu musobaqada yurtimiz vakillarining 5 ta oltin, 2 ta kumush va 5 ta bronza medalini qo‘lga kiritishi shunchaki raqamlar emas, bu – o‘zbek shaxmat maktabining dunyoda peshqadam ekanidan dalolatdir. Umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egallash – Hindiston, Rossiya, Xitoy kabi shaxmat gigantlarini ortda qoldirish demakdir.

Nega biz shaxmatdagi g‘alabalarga bunchalik katta urg‘u bermoqdamiz? Buning sabablari bor, albatta. Birinchidan, shaxmat – intellektual kapital. Shaxmat bilan shug‘ullangan bola mantiqiy fikrlashga, qaror qabul qilishdan oldin uning oqibatlarini hisoblashga o‘rganadi. Bu esa kelajakda ilm-fan va yuqori texnologiyalar sohasida raqobatdosh kadrlar yetishib chiqishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, yutuqlar – milliy nufuzni belgilaydi. Xalqaro maydonda shaxmatchilarimizning g‘alabasi O‘zbekistonni “intellektual millat” sifatida tanitadi. Bu investitsiya va sayyohlik jozibadorligini oshiruvchi “yumshoq kuch” hisoblanadi.

Uchinchidan, g‘olib shaxmatchilarimiz – yoshlar uchun motivatsiya. Iste’dodli o‘g‘il-qizlarimizning ta’lim va sportdagi yutuqlari tengdoshlari uchun o‘rnak bo‘lmoqda. Ular vaqtni behuda sarflash emas, balki o‘z ustida ishlash orqali dunyoni zabt etish mumkinligini anglamoqda.

Yoshlar jamiyat taraqqiyoti va mamlakatimiz kelajagini belgilab berar ekan, bizning vazifamiz ularning jismoniy va ruhiy tarbiyasiga, sog‘lom turmush kechirishi va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga jiddiy e’tibor qaratishdir. Ta’lim muassasalarida tashkil etilgan fan, hunar va sport to‘garaklari ham aynan farzandlarimizning porloq istiqbolini belgilashning muhim omili ekanini yaxshi tushunishimiz kerak. Yoshlarning bo‘sh vaqti – dushmanlarning ish vaqti ekanini yaxshi anglab yetishimiz lozim.

Mamlakatni dunyoga tanitishda, shuningdek, yosh avlodni jismonan va ma’nan barkamol qilib tarbiyalashda sportning o‘rni beqiyos ekanini yaxshi bilamiz. Sport yuksak madaniyat, vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakatni dunyoga tanitadi, barcha yurtdoshlarimizga g‘urur-iftixor bag‘ishlaydi.

Bir yodga olaylig-a, ilgari bugungiday zamonaviy suzish havzalari, tennis kortlari yoki gimnastika zallari yetti uxlab tushimizga ham kirmas edi. Misol uchun, suzish deganda, ariq yoki kanallarda, oddiy sanitariya talablariga ham javob bermaydigan loyqa suv va hovuzlarda cho‘milishni tasavvur qilar edik. Buning oqibatida respublikamiz aholisi, eng yomoni, bolalar o‘rtasida og‘ir kasalliklar nihoyatda ko‘payib ketgani, onalar va bolalar o‘limi bo‘yicha O‘zbekiston sobiq ittifoqda eng oldingi o‘rinlarda turgani ham kechagi tariximizdan yaxshi ma’lum.

Shu ma’noda, Prezidentimizning sportga qaratayotgan e’tibori haqida gapiradigan bo‘lsak, avvalo, ko‘z oldimizga maktablarda, qishloq joylarda, mahallalarda ochilayotgan sport to‘garaklari, yangidan qurilgan yoki tubdan qayta ta’mirlangan, zamonaviy jihozlangan sport inshootlari keladi.

Bugun ularda minglab uka-singillarimiz, o‘g‘il-qizlarimiz o‘z irodasini toblab, jismonan va ruhan sog‘lom bo‘lib voyaga yetmoqda.

Yosh avlodni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqaro musobaqalarda ulkan natijalarni qayd etayotgan sportchilarning boy hayotiy tajribasi, mahorati va salohiyatidan keng foydalanish yaxshi samara beradi. Ana shu maqsadda Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari, jahon, Osiyo chempionlari bo‘lgan sportchilar tuman va shaharlarga biriktirildi, sport maktablariga rahbarlik lavozimiga tayinlandi.

Keyingi yillarda aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni keng targ‘ib qilish borasida ko‘p ishlar qilindi. Mahallalarda, ko‘p qavatli uylar atrofida “Salomatlik yo‘laklari”, sport maydonchalari qurildi, ta’lim muassasalarida sport to‘garaklari ochildi, maktab-internatlar ish boshladi. To‘g‘ri ovqatlanish borasida aniq chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Pirovardida, xalqimizning o‘z salomatligi va sportga bo‘lgan qarashlari tubdan o‘zgardi.


O‘zbekistonlik sportchilar, xususan, shaxmatchilarimizning erishayotgan zafarlari – Yangi O‘zbekiston ravnaqining munosib ifodasidir.

Bugun yosh chempionlarimizning g‘alabalari ortida minglab tengdoshlarining orzu-umidlari va shijoati yotibdi. Zehn o‘tkirligi va aql bovar qilmas matonat talab qiluvchi bu sport turida erishilgan natijalar shuni anglatadiki, O‘zbekiston farzandlari har qanday sohada, xoh ilm-fan, xoh san’at yoki sport bo‘lsin, eng yuqori cho‘qqilarni zabt etishga qodir. Bizning asosiy boyligimiz – mana shunday bilimli va azm-u shijoatli yoshlarimizdir. Galdagi vazifa ushbu muvaffaqiyatlar zanjirini uzmaslik va shaxmatning har bir xonadonga, har bir maktabga kirib borishini ta’minlashdan iborat.

Jamoliddin BADALOV

TALQIN

“YALDO KECHASI”:



SIRLI MUALLIF KIM EDI?

Xabaringiz bor, “Jadid” gazetasining 2025-yil 28-noyabr sonida “Suyunchi” ruknida “Yaldo kechasi”ni kuting va o‘qing!” nomli suhbat e’lon qilinib, unda “Xaybar-25” nomli yangi nashriyot faoliyat boshlagani va ilk mahsuloti sifatida “to‘rt yuz oltmish bir betdan iborat yirik hajmli, murakkab syujet va kompozitsiyaga ega favqulodda g‘aroyib tarixiy roman” – “Yaldo kechasi” kitobini nashrdan chiqarayotgani aytildi. Asar qahramonlarining muhim o‘y-fikrlari, hissiyot va kechinmalari aks etgan ayrim iqtiboslar ham o‘quvchilar e’tiboriga havola etildi... lekin, uning muallifi sir tutildi. Albatta, jamiyatimizning uyg‘oq fikrli ziyolilari orasida darhol savol paydo bo‘ldi: mashhur “O‘tkan kunlar”ning davomi ekani aytilayotgan bu romanni kim yozgan bo‘lishi mumkin?

Oradan ko‘p o‘tmay, “Hurriyat”, “Toshkent haqiqati”, “Adolat”, “Ma’rifat”, “Darakchi” gazetalari ham asardan parchalar e’lon qildi, “Sevimli” telekanali bu haqda maxsus lavha berdi – yana muallifi ko‘rsatilmagan holda. Tabiiyki, kitobxonlar o‘rtasida qiziqish va intriga kuchaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda bahslar qizidi, tahririyatlarga telefon qilib so‘raganlar bo‘ldi.

Atoqli adabiyotshunos olim, O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurovning: *“Bu kitobni u adabiy mistifikatsiyadan foydalangan holda, “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi tarzida yozdi, buyuk Qodiriy nomidan, Qodiriy bo‘lib yozdi; qattol zamon Qodiriyning qo‘lini kishanlab, unga yozish uchun imkon bermaganligi bois fozil izdosh va uvays shogird sifatida yozdi”,* degan fikrlari hammaning tilida aylandi.

Qiziq, kim bo‘ldi ekan, bu sirli muallif? Yangi roman o‘z nomiga mos tarzda aynan yaldo kechasi kutiladigan 21-dekabrda taqdim etilar, muallifning kimligi ham o‘sha kuni oydinlashar ekan. Shu o‘rinda, men internet kanalini qiziqish bilan kuzatib boradiganim – yosh ijodkor Otabek Bakirovning quyidagi fikrlari umumiy vaziyat haqida ozmi-ko‘pmi tasavvur beradi, deb o‘ylayman:

“Tahririyatdan so‘rasam, ular ham bilmas ekan. Bilganlarim asosida bir necha taxmin paydo bo‘ldi.

Birinchi taxminim – Qodiriy umrining so‘nggi yillarida yana shoh asari ruhiga qaytishga ahd qilgan-u, ba’zi qoralamalarni tayyorlashga ham ulgurgan. Ammo ish oxirigacha yetmagan. Keyinchalik Qodiriy muhiblaridan bo‘lgan biror adib tomonidan topilgan asar tarhi boyitilgan.

Ikkinchi taxminim – XX-asrda tarixiy asarlar yozgan yozuvchilardan kimdir “O‘tkan kunlar”ning davomini yozishga jur’at etgan, ammo kitob qilib chiqara olmagan. Ibrohim G‘afurov muallifga “uvays shogird” deya ta’rif berganiga qaraganda, u Qodiriy bilan uchrashmagan. “Fozil izdosh” ekaniga kelsak, demak, mahoratli yozuvchi ekan-da. Tarixiy-badiiy mavzuda yozadigan adiblardan qay biri bu asarni yozib qoldirgan? Ularning avlodlari qo‘lyozmani arxivdan topib, noshirga taqdim etgan bo‘lishi mumkin.

Uchinchi taxminim – bu ulug‘ ishga zamondosh adiblarimizdan biri qo‘l urgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Chunki tarixiy mavzudagi asarlarga qiziqish va ehtiyoj ortib bormoqda bugun.

To‘g‘risi, asardan berilgan parchalarni o‘qib, negadir, uni yosh ijodkor yozmaganiga amin bo‘ldim”.

“Xudo xohlasa, bu yil yaldo kechasini “Yaldo kechasi” romani mutolaasiga bag‘ishlashni niyat qildim. Roman chop etilishini intizor kutyapman”.

“Bir oydan beri kitobxonlar orasida, ijtimoiy tarmoqlarda, matbuot va televideniyeda nomi takror-takror zikr etilayotgan “Yaldo kechasi” romani taqdimotiga sanoqli kunlar qoldi. Muallifi sir tutilsa ham, adabiyotsevarlar tomonidan allaqachon bir necha yozuvchining nomi ilgari surilmoqda. Kitobxonlarning ichki sezgisiga shubha yo‘q, biroq eshitganingga emas, ko‘rganingga ishon, degan naql bor. Bo‘lg‘usi taqdimot ishtirokchilarini yana bir adabiyot bayramiga shohidlik bilan tabriklayman!”

Shu o‘rinda, bir voqeani aytib o‘tay. 10-sinfda o‘qirdim. Bir kuni qo‘shnimizning tandirxonasida yotgan eski jurnalni ko‘rib qoldim, tutantiriqqa ishlatilayotgan ekan, omon qolgan qismini so‘rab oldim. Bir asar endigina boshlangan joyigacha yirtilgan ekan, asar nomi ham, muallifi ham yo‘q, mundarijaga qaray desam, jurnalning oxiri ham yo‘q. O‘qib chiqdim, boshi yo‘q asar menda kuchli taassurot uyg‘otdi. Men uni qissa deb o‘yladim. Yillar o‘tdi, ko‘p kitoblar o‘qidim, lekin o‘sha qissani uchratmadim. Kitobxonlik malakam oshib borgach, xayolimga muhrlanib qolgan o‘sha qissaning nomi “Ko‘ngil ozodadur...” – muallifi Xayriddin Sulton, degan fikrga keldim. Oradan yana yillar o‘tib, mazkur asar qo‘limga tekkach, taxminim to‘g‘ri ekanini bildim.

Demoqchi bo‘lganim, jamiyatimizda shoir-u yozuvchilarimizni adabiy uslubi va salohiyatiga ko‘ra farqlab oladigan kitobxonlar bisyor. Gazetalardagi kichik parchalarni o‘qiboq, asar muallifini to‘g‘ri topgan zukko o‘quvchilarga – adabiyotning chinakam sinchilariga tasanno aytmoq kerak.

Darvoqe, “Yaldo kechasi”ning muallifi bilan bog‘liq sir hatto 21-dekabr kuni poytaxtimizdagi “Shahidlar xotirasi” majmuasida o‘tgan taqdimot so‘ngiga qadar ham aniq ma’lum bo‘lmadi. Qachonki, ushmundoq yuksak ma’rifiy tadbirlarda roviy degan rutbaga erishgan Olimjon Davlat yakuniy so‘zni adib Xayriddin Sultonga berganidagina, yig‘ilganlar minbarga ushbu g‘aroyib roman muallifi chiqib kelayotganiga amin bo‘ldilar.

BUNGACHA...

Zamonaviy o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasi, davlat va jamoat arbobi Xayriddin Sulton bilan uzoq yillar birga ishlab, adibning ijod jarayonlariga ham guvoh bo‘ldim. Mehnatkash demayki, zahmatkashligi, ayni paytda, teran tafakkuri va quvvayi hofizasining o‘tkirligini kuzatdim. U kishini bir muddat ham bo‘sh ko‘rmadim. Mas’uliyatli topshiriqlar, bir kunda o‘nlab yo‘nalishdagi hujjatlar oralig‘ida, hatto 10-15 daqiqa fursat topilsa ham, asar ustida ishlash, eng asosiysi, shu vaqt ichida asar ruhiyatiga qayta kira olish, yana aksar hollarda yarim oqshomgacha davom etadigan ish kunidan so‘ng, tunni ham qo‘lyozmalar bilan bedor o‘tkazmoq – yozuvchidan ozmuncha fidokorlik talab qilmasa kerak. Bu so‘zlar o‘zi yoza olmaydigan, lekin yozganni ko‘ra olmaydigan ayrim ko‘ngli kir kimsalarga mening pisandamdir.

Bir kuni Xayriddin aka menga ikki-uch betlik bir qog‘oz berib, o‘qib fikr bildirishimni so‘radi. Tepasiga “Maxfiy” degan tamg‘a qo‘yilgan hujjat bilan tanishar ekanman, hayratdan tong qotdim. “So‘rovingizga binoan quyidagilarni ma’lum qilamiz”, deb boshlanuvchi rasmiy xatda siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan partiya-sovet arbobi Qurbon Bereginga oid arxivdagi hujjatlar orasidan 2060 betdan iborat qo‘lyozma topilgani, mutaxassislar fikriga ko‘ra, u Abdulla Qodiriy qalamiga mansub, e’lon qilinmagan asar bo‘lishi mumkinligi, o‘z davrida Qodiriy uni o‘qish uchun Yozuvchilar uyushmasi rahbari Bereginga bergani, shu tariqa qo‘lyozma Bereginning “jinoiy ishi”ga tikib qo‘yilgani ehtimoli aytilib, qo‘lyozmaning o‘zi ham tez orada taqdim qilinishi yozilgan edi.

– Umuman kutilmagan, juda zo‘r voqea-ku, – dedim hayajonlanib. “Amir Umarxonning kanizi”mikan?..

– Bo‘lishi mumkin, – dedi Xayriddin aka. – Qo‘lyozma kelsin-chi, ma’lum bo‘lar...

Nihoyat, bir kuni u kishidan mazkur qo‘lyozmani olib, katta qiziqish bilan o‘qir ekanman, bu Abdulla Qodiriy qalamiga mansub, hali e’lon etilmagan yangi bir asar ekaniga ishona boshladim. Unga “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi” deb taxmin qilinayotgan asar” deb tagsarlavha qo‘yilgani esa ishonchimni ziyoda qildi.

Keyin ma’lum bo‘ldiki, bu so‘zboshi “Yaldo kechasi” romani uchun Xayriddin Sulton tomonidan yozilgan badiiy to‘qima ekan. Uni shu holida ham bemalol e’lon qilsa bo‘lardi. Ammo adib bunday qilmadi. Yana uzoq o‘yladi. So‘ng ushbu kirish so‘zini shu kunlarda Berlinda yashagan Ilyos Sobirov degan o‘zbek muhojiri olmon arxividan topib, nashriyotga yuborgan noma’lum bir qo‘lyozma sifatida talqin etib, qaytadan yozdi. Go‘yoki, Qodiriy asari Turkiston legioni bilan bog‘liq holda bu olis o‘lkaga borib qolganday tus oldi. Bu faraz ham ishonchli edi, chunki adib bunga ham aniq tarixiy asoslar topgan edi – taniqli olim Bahodir Karim shu mavzuga oid noyob bir materialni Germaniyadan topib kelib, muallifga berganidan xabarim bor edi. Lekin u kishi so‘zboshining ikkinchi variantidan ham qoniqmadi va kitobda e’lon qilingan butunlay boshqa – uchinchi variantni yaratdi.

Bu misollar yuqorida aytilgan zahmatkashlik ta’rifiga yana bir dalil, xolos. Xayriddin Sulton birgina Kirish so‘zini uch qayta butkul yangidan yozgani kabi, roman matnini ham uzoq vaqt davomida takomillashtirishdan, qayta-qayta tahrir qilishdan erinmadi. Shaxsan o‘zim asarni qo‘lyozma holida ikki marta o‘qib chiqdim – har gal romanda tub o‘zgarishlar bo‘layotganini kuzatib bordim. Ayni paytda, uchinchi mutolaa kitob nashrdan chiqqunga qadar yana jiddiy badiiy ishlovdan o‘tganini ko‘rsatmoqda.

TO‘RT JUMLADA BIR ROMAN MUJASSAM

Ma’lumki, mashhur “O‘tkan kunlar” romani shunday yakun topadi: “Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risida surishtirib bildim: Yodgorbekdan... ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi Marg‘ilonning mas’ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o‘luk-tirigi ma’lum emas, deydilar”.

Zakiy adib shu to‘rt jumlagina so‘zda butun boshli bir roman syujetini ko‘ra oldi va yuksak mahorat bilan ushbu muhtasham asarni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Uni “Yaldo kechasi” deb nomladi. “O‘tkan kunlar”ning ikkinchi kitobi” deb taxmin qilinayotgan asar” degan mavhumroq nomdan voz kechib, asarni “O‘tkan kunlar”ga ilova” deb atadi. O‘ziga xos kamtarlik bilan muqovaning ichki sahifasida “Tarixiy hujjatlar asosidagi badiiy to‘qima muallifi Xayriddin Sulton” degan eslatma berdi, xolos. “Bu asarning muallifi – nomlari keng jamoatchilikka ma’lum va hozircha noma’lum bo‘lgan yuzlab-minglab vatandoshlarimiz, ta’bir joiz ko‘rilsa, butun o‘zbek xalqidir”, deya mardona ta’kidladi.

QODIRIY BOLIDIN HALVO

Muallif o‘zi uchun ma’naviy pir deb bilgan Abdulla Qodiriyning muborak nomidan so‘z aytmoqqa jur’at qilar ekan, yillar davomida o‘zini bu ulug‘ ishga tayyorladi. Qodiriy haqida, ul zotning ijodi asosida qator asarlar yaratdi. Qutb Xorazmiy: “Qazontek qaynab ush savdo pishurdum, Nizomiy bolidin halvo pishurdum”, deb yozganidek, o‘zim guvohman – mavzuga doir hisobsiz tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari, mamlakatimiz va chet ellarda chop etilgan ilmiy tadqiqotlar, kitob, risola va maqolalar sinchiklab o‘rganildi, syujet va badiiy xulosalar muallif qalbida qaynab pishdi.

To‘plangan tog‘dek ulkan materiallar, necha yuz ming betlik ko‘chirmalar “qariyb olti yil qilingan uzluksiz mehnat, bedor o‘tkazilgan tunlar, ba’zan bir jumla ham yozilmasdan xunob bo‘lingan kunlar” hisobiga bir g‘oyaviy-badiiy chiziqqa tizimlashib, teran fikr, cho‘ng mantiq asosida qodiriyona yetuk asar dunyoga keldi.

Jahon adabiyotida bunga o‘xshash ayrim misollar mavjud. Masalan, logann Volfgang Gyotening “Yosh Verterning iztiroblari” nomli mashhur romanidan 165 yil keyin uning davomi sifatida yana bir atoqli olmon adibi – Tomas Mann “Lotta Veymarda” degan asar yozganini ko‘pchilik biladi. Lekin Mann romanida personajlar o‘zgaradi Gyotening o‘zi bosh qahramonga, kitob biografik asarga aylanib ketadi. Yoki Migel de Servantesning “Don Kixot” asari g‘oyat ommalashib ketgach, boshqa bir muallif hali Servantes hayot chog‘ida romanning ikkinchi qismini yozib, uning nomidan e’lon qilib yuborganiga nima deysiz? Bundan achchiqlangan Servantes o‘zi yeng shimarib, “Don Kixot”ning davomini yozadi. Lekin har ikkala “davom” ham birinchi kitobdek shuhrat qozona olmaydi.

Mumtoz va zamonaviy jahon adabiyotining bilgichlaridan biri sifatida Xayriddin Sulton, albatta, bunday adabiy hodisalardan yaxshi xabardor edi. Ammo o‘zini kutib turgan adabiy muammolar, hattoki, ehtimoliy ta’na-dashnomlarga qaramasdan, u mana shunday ulkan bir ishga qo‘l urishga qalbida kuch va jasorat topa bildiki, bu uning g‘oyaviy va badiiy maqsadi bilan uzviy bog‘liqdir.

YOZUVCHINING MAQSADI

Adibning orzu-niyati Abdulla Qodiriyning o‘lmas shuhratiga sherik bo‘lish yoki “O‘tkan kunlar”ning davomini yozgan qalamkash sifatida arzon-garov obro‘ qozonish emas. Aslo! Chunki Xayriddin Sulton katta yozuvchi, binobarin, obro‘-e’tibori o‘ziga yetarli, milliy adabiyotimizda munosib va mustahkam o‘rniga ega. Abdulla Qodiriy nomidan so‘z aytish esa o‘zining qalbini o‘rtab kelayotgan g‘oyat muhim fikrlarni, bugungi hayotning achchiq haqiqatlarini o‘quvchi ongiga chuqur singdirmoq, shu favqulodda uslub bilan asarning ta’sir kuchini oshirmoq uchun vosita sifatida tanlangan yo‘ldir.

Muallif bundan yuz-yuz ellik yil naridagi “o‘tkan kunlar”imizdan so‘z ochar ekan, aslida, iztirobli tarix timsolida hozirgi kunimizning eng o‘tkir va dardli og‘riqlarini odamlarga yetkazmoqqa intiladi. “Ey, inson, bu hayotda sabiy, go‘l bo‘lib qolma! Ko‘zingni och, hushyor bo‘l!” deya hayqiradi. El-yurt ahlini kiprikdagi yoshdek qalqib turgan bugungi notinch zamonga uyg‘oq nigoh bilan qarashga da’vat qiladi. Goh Otabek, goh Ozodbek bo‘lib, goho esa Odilbek yoki Nusratxon to‘ra bo‘lib, barchamizni dunyoning yetti uxlab tushimizga ham kirmagan qing‘ir va g‘irrom geosiyosiy o‘yinlaridan ogoh etishga harakat qiladi.

Xossatan, Otabekning armon bilan aytgan quyidagi so‘zlarini o‘qing – faryod to‘la bu haqiqatlar bugun ham jahon sahnasida kechayotgan voqealarning aynan aksi emasmi: *“Fikri ojizimcha, bu ikki podishoh – ular bir-birlari ila xesh-aqrabo ekanlari ham hazratimg‘a maxfiy ermas – ushbu yo‘sinda zimdan kelishib olg‘anlar. Ya’nikim, Oq podishoh hukumati ingilislarning Hindistondag‘i hukmdorliq siyosatig‘a daxl etmasa, ingilis saltanati ham ularning Turkistonda mo‘ljal qilg‘an istilosig‘a mutlaqo aralashmas. Zero, kichik bir musulmon ulusini deb sohibi dunyo bo‘lg‘an ikki nasroniy davlat bir-biriga qarshi tig‘ ko‘tarmas, olampanoh...”*

Shu o‘rinda, “Yaldo kechasi”da Otabek butunlay yangi – ijtimoiy-siyosiy rakursda namoyon bo‘lganini alohida ta’kidlamoq zarur. Zamona a’yonlarining “fikri zikri amal, fitna-fasod, rishvat, xazinani talash, xotin ustiga xotin olish...” bo‘lgan bir davrda Otabek taraqqiyparvar, ayni vaqtda erka bir bekzodadan chinakam Vatan himoyachisiga aylana boradi. Avval – “O‘tkan kunlar”da sof muhabbati uchun kurashgan bo‘lsa, endi Vatan ozodligi uchun jangga kiradi. “Mamlakat tinchligi va osoyishi yo‘lida bir arzimas bosh ketsa... hech bokisi yo‘qdir”, deya bu ulug‘ yo‘lda aziz jonini fido qiladi.

Otabekning Qo‘qon xoni Sulton Sayyidxon nomiga yo‘llagan maktubidagi: *“Dashti Qipchoq yeri barcha ahli islom mulkining darvozasi – kindigidir! Kimki bu mulkni qo‘lg‘a kiritsa, alal-oqibat nainki Xo‘qand, balki Xeva-yu Buxoro davlatlarini ham qo‘lg‘a kiritgay”*, degan ochiq bashorati tarix qatlariga ko‘milib ketmaganini, aksincha, bugun ham naqadar dolzarb ekanini barchamiz yaxshi anglashimiz darkor. Bu gaplarning ma’nosini chaqyapsizmi? Illo, bu iztirobli xitoblar “bamisoli qabristonda azon chaqirgan kabi aks-sadosiz yo‘qolib” ketmasin!

Yoki Otabekning nabirasi Ozodbekning mana bu so‘zlarini hozirgi zamon uchun daxlsiz, deb o‘ylaysizmi: *“Inim, boshingni qonli chelakka tiqma... Chunki, kuch barobar emas, imkon, silohlarimiz teng emas... Na Turkiya, na Ovrupo – hech qaysisi bizni deb, o‘z xalqining manfaati va halovatini xatarg‘a qo‘ymas. “Turkiya-Turkiya” deb tamshang‘an bilan og‘iz chuchimas. Turkiya ham sobiq bir imperiya ekanini, ulug‘davlatchiliq kasali unga-da begona emasligini unutmaslik zarur. Qolabersa, Otaturk Lenin bilan og‘iz-burun o‘pishib yurganini bilurmisan? Biz faqat Yaratgan egam va yolg‘iz o‘z kuchimizg‘a tayanmog‘imiz lozim. Dunyo yer yuzidagi qudratli saltanatlar o‘rtasida allaqachon taqsim qilib bo‘ling‘an. Bul taqsimotda biz – Turkiston kabi nochor va zaif o‘lkalarning ulushi yo‘q darajadadur... Agarki biz millat, davlat o‘laroq dunyo xaritasidan butkul o‘chib ketsak ham, bul fojia jahon xojalarini chivin chaqqan kabi seskantirmas. Bas, hol shunday ekan, biz o‘zimizni jahannam otashig‘a otmaslig‘imiz, aksincha, elimiz, yurtimizni qanday qilib bo‘lsa-da, yo‘q bo‘lib ketishdan asrab qolish haqida qayg‘urishimiz kerak. Turkiston yana bir muxtoriyat qirg‘inini ko‘tara olmas”.*

Bu alamli, lekin haqqoniy fikrlarni xotirjam tinglash mumkinmi?!

Tarix o‘zgarmaydi, ismlar va qiyofalar o‘zgaradi, xolos. Asarni o‘qir ekansiz, nogoh uning tag-zamiridagi teran fikrlarni anglab, qilichning tig‘idek keskir bir savol etingizni junjiktirib yuboradi: biz – yurt uchun jonini qurbon qilgan mana shunday qahramon zotlarning avlodlari bugungi notinch dunyoda Vatanimiz mustaqilligini har soniya, har daqiqa himoya qilishga qodirmizmi?

Romandagi real prototipga ega bo‘lgan, ya’ni ulug‘ ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibrat shaxsini badiiylashtirgan oqil mo‘ysafid – Nusratxon to‘raning mana bu fikrlari nafaqat bugun, balki uzoq kelajakda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligi shubhasiz: *“Niyatlari go‘zal, orzulari-da sarafroz. Ammo mamlakatdorliq yolg‘iz hoy-u havas bilan poydor bo‘lmas. Iqtidor, avvalan, harbiy iqtidor kerak. Sarmoyaviy qudrat lozim. Soniyan, el-ulusning yakdilligi, qo‘llovi darkor. Taassufki, muxtoriyatda mana shu uch nimarsaning birontasi ham yo‘qtur. Bo‘lsa-da, chala va zaifdir. Mana, o‘zing mushohada et. Bas, bu kungi holimizni xotirg‘a kelturib, istiqbolimizni tayin etaylik”.*

Abdulla Qodiriyning munosib nevarasi Xondamir Qodiriyning taqdimot marosimida aytgan gaplari hammamizni o‘ylantirishi zarur: *“O‘tkan kunlar” romani ham, “Yaldo kechasi” asari ham bizni, eng avvalo, aziz Vatanimizni, uning ozodligi va mustaqilligini asrashga, milliy istiqlolning qadriga yetishga chorlaydi. Zotan, ko‘hna tarix shundan saboq beradiki, mustaqillik, ozodlik va erkinlik himoyasi yo‘lida bir umr ogoh, hushyor va sezgir bo‘lishimiz kerak”.*

Axir, bu achchiq haqiqatlar mustabid tuzum zulmi tufayli Abdulla Qodiriyning yuragida armon bo‘lib qolgan so‘zlar emasmi? Buyuk Qodiriy “O‘tkan kunlar”da el-u yurt dardidagi fig‘onu faryodlarini imkon qadar bayon etgan bo‘lsa, “Yaldo kechasi”da bu fikrlar yanada dadil ifoda etilganini ko‘ramiz.

“O‘tkan kunlar”dagi Yusufbek hoji bilan bog‘liq quyidagi sahna esingizdadir: *“Beklar, manim hamma mulohazam yurt, el manfaati nuqtasidan turib aytiladir... Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning manfaati shaxsiyasi yo‘lida ish ko‘rguchi boshliqlarida va qipchoqlar o‘ylag‘andek gunoh qora choponlilarda bo‘lmay, balki uning uch-to‘rt ma’nisiz beklarida!.. Burodarlar! O‘rus o‘z ichimizdan chiqadirg‘an fitna-fasodni kutib, darbozamiz tegida qo‘r to‘kib yotibdir. Shunday mahshar kabi bir kunda biz chin yovg‘a beradirgan ku-*

XULOSA VA SABOQLAR

chimizni o‘z qo‘limiz bilan o‘ldirsak, sen falon deb qirilishsaq, holimiz nima bo‘ladir? Bu to‘g‘rida ham fikr qilg‘uchimiz bormi? Kunimizning kofir qo‘lig‘a qolishi to‘g‘risida ham o‘ylaymizmi yoki bunga qarshi hozirlik ko‘rib qo‘yg‘anmizmi?! Siz o‘z qipchog‘ingiz uchun qabr qazig‘an fursatda, sizga ikkinchilar tobut chopadir. Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘rus bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimg‘a yetkan ko‘raman!”

Yusufbek hojining ko‘zda yosh bilan aytayotgan bu gaplarini o‘sha vaqtda “Toshkandning yetuklik ashrof va a’yonidan” bo‘lgan eng oldi bek va amaldorlari tushunmagani, tushunmaslik ne, hatto donishmand hojini “yoshi qaytib, ko‘ngli juda ham bo‘shashib ketgan”ga chiqarib, “oldidag‘i ovni ko‘rmay, uzoqdagi yovni ko‘radir”gan “ko‘knorixayol”ga chiqarib, “xudda-xudda”lab kulgani singari bugun ham jamiyatimizda shunday achinarli hodisalarga guvoh bo‘lmayapmizmi? Global dunyoda kutilgan va kutilmagan jiddiy xatarlar boshimizga xavf solib turganida, deylik, Toshkand beklari yagona dushmani sifatida qipchoqni ko‘rganidek, o‘zbek ziyolisi uchun bugun Abdulla Qahhordan boshqa dushman yo‘qmikin, deb o‘ylab qolasiz. Yusufbek hoji dardchil jilmayganday bo‘ladi: *“Ana, o‘g‘lim, bizning xalqning holiga yig‘lashni ham bilmaysan, kulishni ham!”*

Taqdimot marosimida, Xayriddin Sulton o‘rinli ta’kidlaganidek, ushbu asar muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan yurtimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va erkinlik siyosatining amaliy hosilasi sifatida dunyoga keldi. Chindan ham, davlatimiz rahbari aytganidek, agarki, har jabhada yuksak salohiyat sohiblari bo‘lgan, ehtimol, yuz yilda bir marta dunyoga keladigan bu ajdodlarimiz yo‘q qilinmaganida, ularning g‘oya va dasturlari amalga oshganida edi, Turkiston o‘lkasi – hozirgi Markaziy Osiyo jumhuriyatlari qatorida O‘zbekiston ham qanday gullab-gurkiragan, bugun bizni qiynayotgan og‘ir muammolar balki bundan yuz yil avval barham topgan bo‘lardi. Ming afsuski, mustabid tuzum bunga yo‘l qo‘ymadi. Ularni qatl va qatag‘on qildi. Ammo bu fidoyi zotlarning ruhini, tafakkurini mahv etolmadi.

“Yaldo kechasi” romani el-yurt ozodligi uchun qurbon bo‘lgan fidoyi ajdodlarimizning o‘lmas ruhi va tafakkurini o‘zida jo etgani va bugungi kun uchun g‘oyat muhim bo‘lgan g‘oyaviy-siyosiy mohiyati bilan beqiyos ahamiyatga egadir.

BIR ACHCHIQ KULGI

Asarda go‘yoki Qodiriy nomidan bitilgan “Yozg‘uchidan” degan qisqa eskartma berilgan. Keling, shu ixcham matndan uzunroq iqtibos keltiraylik:

“Qadim asrlardan to bizning kunlarga qadar xalqimiz turmush voqeligidan yiroq afsona va ertaklarni tinglab-o‘qib keladir. Ota-bobolarimizdan qolg‘an shirin-shirin kitoblar, qissa va rivoyatlar bisyor. Ikki-uch yuz yildan buyon ana o‘shalarning barakasida qonimizni sovutmay keldik.

Bularning ruhiyatka bergan ma’naviy ta’sirini inkor etmak mumkinmi?

Bekorchiliqdan zerikib, “Bobo Ravshan”ni ochasiz-da, Qashamshamning duldulni minib, ajdarni o‘ldirgali ketkanini o‘qiysiz... Ana shul fursatdag‘i kayfni ko‘ring! O‘zingizni bamisoli Qashamsham deb xayol qilasiz-da, tilsimga ko‘milgan ajdarg‘a qarab turib, qo‘lingizdag‘i yelpug‘ichning yo‘g‘on yog‘ochi bilan andog‘ urasizki, xonadag‘i bor bisot-bag‘alingiz chilparchin bo‘lub, chang-to‘zoni osmoni falakka ko‘tariladir.

Nainki avom, balki zamonaning fozil-u oriflari, yurt so‘rag‘an hukamolarining ham tanglayi mana shunday asotirlar ila ko‘tarilgan edi, desak, so‘zimiz yolg‘on bo‘lmas. Inchunun, Buxoroi sharifdek muazzam bir saltanatda davron surgan amiri Haydar uzun qish kechalari saroyg‘a qissaxonlarni to‘plab, ulardan doston-u cho‘pchak eshitib, xayolot daryosig‘a g‘arq bo‘lar ekan.

Rivoyat qilurlarkim, mazkur amiri Haydar zimiston bir kechada Chori baxshidan “Alpomish” dostonini tinglab o‘ltirib, so‘z Alpomishning qalmoq qo‘lig‘a tutqun bo‘lib tushkan yeriga yetkanida, azbaroyi hayajoni jo‘shib, sakrab otqa mingan va sipohiy-sarbozlarig‘a yuzlanib: “Ketdik qalmoq eliga – borib Alpomishni qutqaramiz!” deb xitob qilg‘an ekan”.

Qanday og‘ir va alam-angez haqiqat – bir achchiq kulgi bor bu so‘zlarda. Axir, tarixda xalqimiz hayotining katta qismi mana shunday turmushdan yiroq bo‘lgan afsona-yu cho‘pchaklarga – “shirin-shirin” rivoyatlarga andarmon bo‘lib o‘tib ketmadimi? Dostondagi Alpomishni qutqarmoqqa shaylangan hukmdor ahvolidan kulasizmi-kuyasizmi? Taniqli adib Efraim Sevelaning ijodida shu narsani kuzatganman: chin millatparvar yozuvchi millatning emas, uning nuqson-u ayblari ustidan oshkora kulib, aslida botinan yig‘lab yozadi.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola”sidagi mashhur parchalarni eslang:

“– Hoji bobo, kitobdagi bir masalaga shubha qilib qoldik. Abu Muslimi sohibqiron bilan Nasiri Sayyori Beor dashti Xurosonda jang qilganda ul janobning boshlariga-ku, Nasiri Sayyor to‘qson olti ming botmonlik gurzigaron bilan urgan edi. Shunda ul janob tizzagacha yerga botgan edilarmi, yoki belgachami? Bulturgi o‘qigan nusxamizda tizzagacha deyilgan edi. Bu yilgisida belgacha, deb yozilgan.

– Tizzagacha degani to‘g‘ri, – dedi Hoji bobo, – chunki qoidai pahlavonlik uch zarb bo‘ladi. Birinchi zarbda tizzagacha, ikkinchi zarbda belgacha, uchinchi zarbda yelkagacha. Nauzanbilloh, bir zarbda ul sakbachcha janobni bellarigacha yerga botirgan bo‘lsa, ikkinchi zarbda quloqlarigacha botirib, zo‘ravonlik Yazid bilan Marvoniharda qolar edi...”

“Germon degani oltita tomonida ko‘zi bor, qanotli bir toifa emish. Oq poshshoning bir talay shaharlarini yer bilan yakson qilgan emish. Ayniqsa, o‘rmalovchi bir to‘p chiqargan emish, bu to‘pi ajdar naslidan emish. Germonga faqat Abu Muslim, Qahramoni qotil, Xalifayi Rumday sohibqironlar bas kelmasa, boshqasi bas kelolmas emish...”

Astag‘firulloh, ilm-u urfon qo‘yday adashib Yevropa tomonlarga o‘tib ketgan (Mirkarim Osim iborasi), “germon degani ajdar naslidan to‘p ishlab chiqarayotgan” bir zamonda, biz “qadim asrlardan to bizning kunlarga qadar” turli cho‘pchaklar to‘qib, “tizzalarigacha yerga kirib ketdilarmi, bellarigacha?” deya bahs boylab, Nasiri Sayyorni “Yo Ali!” deb dast ko‘tarib, muborak boshlaridan yetti marotaba aylantirib-aylantirib osmonga otgan va bir osh pishgunga qadar ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketgan ul nopokning vujudini ba’daz muborak qo‘llari bilan tutib olgan Abu Muslim jangnomalari singari lof to‘la o‘tirik-o‘shshaklarga “kiroyi mardonalik bu bo‘libdur”, deya o‘zimizni ovutib yurmadikmi?

Bugun-chi, bugun? Internet tarmoqlariga bir qarang. Zamondoshlarimiz “bel bog‘lab” bahslashib yotgan maydon o‘ta tor, o‘ta maishiy va hatto maishiy buzuq mavzular emasmi? Nahotki, “to‘nni uzun kiymoq maqbulmi yo qisqa”dan boshqa o‘ylaydigan jiddiyroq masalamiz bo‘lmasa? Bularni ko‘rar ekan, shoirga qo‘shilib: “Shular o‘ylarmikin tuprog‘imizni, Shular ko‘tararmi elning yukini?” deya hayqirib yuborgingiz keladi.

Xayriddin Sulton – millatparvar adib, bir ziyoli, sog‘lom fikrli inson o‘laroq o‘lkamizning qonli va shonli tarixini, el-u yurt boshiga tushgan qora kunlar mohiyatini anglab larzaga tushadi. Bugungi ma’naviy evrilishlarni ko‘rib-kuzatib, qattiq xavotirlik tuyadi.

U “milliy ozodlik uchun jonini tikkan, Vatan va kelgusi nasllar taqdiri haqida qon yutib qayg‘urgan qahramon, juvonmard va juvonmarg ajdodlarimizning kurash yo‘li, murod-maslaklari, orzu-intilishlari, aql-zakovati, bukilmas iymon-irodasi, qanchalar ayanchli kechgan bo‘lmasin, ibratli qismati haqida zamondoshlar, alalxusus, yosh avlodimiz ko‘proq bilishlari, haqqoniy tasavvurga ega bo‘lishlarini” istadi. Mana shu yengilmas istak – ajdodlarimizning ma’naviy vasiyati xuddi qiyomat qarz kabi unga tinchlik bermadi va qo‘liga qalam tutqazdi.

“Alqissa, endi davron o‘zgarib, ana shu cho‘pchak-afsonalar o‘rnini bosadirg‘an, zamon talabi va zakiy zotlar ta’big‘a mos keladirgan biron haqqoniy asar bitmoqqa ko‘pdin buyon orzumand edim”, deya buyuk Qodiriy tilidan so‘zladi u.

Adib jiddiy kitoblarni qo‘ying, hatto telefonidagi bir-ikki og‘iz jumlani ham o‘qishga erinadigan, ko‘zi ochiq mudraydigan befarq zamondoshlarimizning ham fikrini uyg‘otmoq maqsadida mana shunday badiiy intrigani o‘ylab topdi.

Nikkolo Makiavellining falsafasi va inglizcha ibora bilan aytganda, “The end justifies the means”, ya’ni maqsad – vositani oqlaydi, albatta. Ammo bu o‘rinda Albert Eynshteynning ham fikri muhim: “Nomunosib vositalarni oqlovchi maqsad hech qachon yuksak maqsad bo‘lolmaydi”. “Yaldo kechasi” romani muallifining maqsadi ham, maqsad yo‘lida qo‘llagan vositasi ham ezgu va xayrli ekanini alohida ta’kid etmoq zarur. Birgina dalil: ko‘plab kitobxonlar, ziyolilarimiz yangi asar mutolaasidan so‘ng “O‘tkan kunlar”ni qayta o‘qishga tutinganlari, shunga ichki bir ehtiyoj tug‘ilganini aytmoqdalar.

Shoir aytadiki: “Uning she’r yozmasligi ehtimol, Luis Moran ammo shoirdir”. O‘quvchi “Yaldo kechasi” mutolaasiga kirishar ekan, undagi “O‘tkan kunlar” ruhiyati yaqqol aks etadigan “Piri siddiq. Ikki g‘arib” nomli ilk sarlavhani o‘qiboq, ko‘nglida “Bu asarni Qodiriy yozmagani ehtimol, lekin yozsa – xuddi shunday yozgan bo‘lardi”, degan ishonch qat’iylashadi.

USMON QUR’ONINING QAYTISHI

Fursatdan foydalanib, muhtaram kitobxonlarimizga “Yaldo kechasi” romanining eng hayajonli, eng ta’sirchan bo‘limlaridan biri – “Mus’hafi sharifning qaytishi”ni alohida e’tibor bilan o‘qishni tavsiya etgan bo‘lardim. U sahifalarda “tamomi yer yuzidagi musulmoniya olimlarig‘a ma’lum” bo‘lgan Usmon Mus’hafi tarixidan hikoya qilinadi.

Aytish lozimki, bir paytlar chor istilochilari tomonidan aldov va qo‘rqitish yo‘li bilan o‘lkamizdan olib ketilgan bu tabarruk kitobning yurtimizga qaytarilishi bilan bog‘liq voqealar adabiyotimizda hali yoritilmagan mavzulardan biri edi. Romanning “Yodgorbek Otabek o‘g‘lidirman...” nomli bobidan boshlab uning mazmuniga mahorat bilan singdirilgan ushbu voqea bayonini, ta’bir joiz bo‘lsa, asar ichidagi mustaqil asar sifatida baholasak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Kitobda Nusratxon to‘ra nomidan aytilgan bir bashorat bor: “Mus’hafi sharif necha yillar hukumat tasarrufida bo‘lar – buni bilmasman, ammo iymonim komilkim, bir kun kelib u yana musulmonlar qo‘liga o‘tkay va shundagina Turkiston chin ma’nosi ila istiqlol va ozodliqqa erishgay”.

Darhaqiqat, 1923-yildan boshlab sovet muzeylarida saqlangan Usmon Qur’oni 1989-yili musulmonlar idorasi ixtiyoriga topshirilgach, oradan ikki yil o‘tib yurtimiz mustaqilligi qo‘lga kiritiladi. Bu, albatta, keyin yuz bergan voqealar. Hozir esa “Yaldo kechasi”ga qaytaylik.



“Poyiz o‘tib borayotg‘an Totoriston va Qazoqiya yerlarida, – deb tasvirlanadi asarda, – tuya va ot mingan hamda poyi-piyoda son-sanoqsiz odamlar sahro-yu cho‘llar, yaylov va o‘rmonlarda yashil tug‘ va alamlarni hilpiratib, ko‘zlari yoshqa to‘lg‘an holda, “Allohu akbar!”, “Allohu akbar!”, “Laa ilaaha illallohu vallohu akbar!”, “Allohu akbar va lillaahil hamd!” degan xitoblar bilan maxsus vago‘n ortidan yugurib-yelib kelar edilar.

Otash aroba to‘xtag‘an bekatlarda esa yosh-u qari, erkag-u ayol aralash tumonat mardum vago‘nlarg‘a yopirilib ichkariga kirishka urinar, qurollangan soqchilar bunga izn bermagach, hech qursa, poyizning eshik va oynalarini, bu ham muyassar bo‘lmasa, temir g‘ildiraklarini tavof qilmoqqa jon-jahdi ila intilar edi. O‘zini mo‘min-musulmon sanag‘an har bir inson bu shukuhli karvon yo‘lig‘a peshvoz chiqishni, shu tariqa ulug‘ bir savobg‘a doxil bo‘lishni ilohiy burch, deb bilardi”.

Bu vagonda Usmon Mus’hafi Boshqirdistondan Turkistonga olib kelinmoqda edi. Ana shunday yuksak e’tiqod-u e’timod, as’asa-yu dabdaba bilan yurtga olib kelingan kitobning holi keyin ne kechdi? Afsus, ming afsus...

Kitobda go‘yoki nashriyot nomidan berilgan izohda shunday alamli so‘zlarni o‘qiymiz: *“...oradan bir necha yil o‘tib* (ya’ni, mustaqillik arafasida – I.I.), *Toshkent ko‘chalarini to‘ldirgan ming-ming kishilarning hayajonli hayqiriqlari, shod-u xurramlik sadolari ostida Musulmonlar idorasiga topshirilgan Usmon Mus’hafi bilan bog‘liq aql bovar etmas xunuk bir voqea sodir bo‘ladi. Ya’ni, hech kutilmaganda, 353 sahifalik bu mo‘tabar kitobning 15 varag‘i yo‘qolgani haqida gap-so‘zlar tarqaladi. Ustiga ustak, Londonda o‘tkazilgan kimoshdi savdosida uning har bir varag‘i 55 ming dollardan baholanadi. Shov-shuv ko‘tariladi, tekshiruvlar boshlanadi. Dunyo muzeylarida bu noyob kitobning oltitagina nusxasi saqlanar ekan. Boshqalarga so‘rov yuborilsa, ularda bus-butun turibdi, Toshkentda esa...*

Ma’lum bo‘lishicha, kitob topshirilgan o‘sha mahkamada ishlovchi to‘rt kishi til biriktirib, o‘n beshta varaqni kitobdan qirqib olib, bir ajnabiyga 2 (ikki) ming dollar(!)ga sotgan ekan...”

Asarning keyingi satrlari bundan ham dardli:

“Og‘ir bir savol odamni qiynaydi, iztirobga soladi. Ushbu Qur’oni karim uch asrdan ziyod vaqt davomida Samarqandda, keyin qariyb yarim asr chor Rossiyasi kutubxonasida, yetti yil Ufa shahrida, so‘ngra esa oltmish besh yil mobaynida sovet O‘zbekistoni muzeylarida asrab kelindi. Mana shunday uzoq davrlar mobaynida yuz bergan istilo va bosqinlar, jahon va fuqarolik urushlari, ocharchilik va qahatchilik, qatag‘on qirg‘inlari, zilzila va toshqinlar, ashaddiy ateizm xurujlariga qaramasdan, to‘rt yuz yildan ortiq vaqt mobaynida biron sahifasi u yoqda tursin, bironta harfiga zarar yetmasdan bezavol, beshikast saqlandi. Va nihoyat, Mus’hafi sharif Musulmonlar idorasiga berilganidan so‘ng uch-to‘rt yil o‘tib, mana shunday yovuzlik sodir etildi!”

Qanday chidab bo‘lmas isnod bu! Yuragida vijdoni uyg‘oq har bir insonning “qahr-u g‘azabdan bir gaz sakrab” tushishi shubhasiz bunday sharmandalikdan.

Lekin, ming afsuski, bu voqea uydirma yoki badiiy to‘qima emas, hayotiy asosga ega, ochiq manbalarda e’lon qilingan tarixiy haqiqatdir.

Asar davomida yana quyidagi so‘zlarni o‘qiymiz:

“...Rivoyatlarg‘a ko‘ra, hazrati Usmon mazkur Mus’hafi sharifni o‘qib o‘ltirg‘an chog‘larida shahid etilganlar. Ul zotning muborak qonlari mana shu ko‘rib turg‘aningiz sahifalarga sachrab, dog‘lari to hanuz saqlanib qolg‘an...

Ozodbek Kalomullohni ko‘z nuri ila tavof qilar ekan, “Otamning ham qoni sachrag‘an!” – degan fikr ko‘nglidan o‘tdi”.

Otalarning, bobolarning mo‘‘tabar qoni sachragan, bugungi kunda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida keng jamoatchilikka namoyish etilayotgan, musulmon olamining eng ulug‘ va muqadas durdonalaridan biri bo‘lmish Usmon Mus’hafining “shukuhli va ayni chog‘dagi mahzun tarixi” mana shunday. Kitobxonlarimiz bu tarixdan – “qog‘oz betiga tushgan har bir so‘z, har bir ibora o‘t sochib yonayotgan” sahifalardan ibratli xulosalar chiqarib yashashi bugungi kunimiz uchun naqadar zarurdir.

NOVATOR ADIB

Odatda, aksar yozuvchilar yoshi ulg‘aya borgani sari ko‘proq an’anaviy ijod yo‘siniga, hatto ko‘proq didaktikaga moyil bo‘lib borishi sir emas. Ular zamonaviy adabiy tajribalarga nafaqat qo‘l uradi, aksincha, shu harakatdagi yosh ijodkorlarning izlanishlarini qabul qilishi ham qiyin kechadi.

Xayriddin Sultonning keyingi yillarda e’lon qilingan asarlariga nazar tashlasak, buning aksi namoyon bo‘ladi. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyandalarini, ularning taqdir yo‘llarini bir ramziy bino atrofiga jamlagan “Navoiy-30” kitobi, faqat qahramonlar monologi asosiga qurilgan “Odamlardan tinglab hikoya” to‘plami, telefon qo‘ng‘iroqlaridagi suhbat-muloqotlar orqali bugunning alg‘ov-dalg‘ov manzarasi mohirona aks ettirilgan “Ishonch telefoni” qissasi, milliy adabiyotimizda deyarli yoritilmagan uchuvchilar obrazi galereyasini taqdim etgan “Osmoni falaklarda” asari, moziy va hozirgi kun ajib bir uyg‘unlikda tasvirlangan “Ulug‘ amir va donna Mariya” adabiy ssenariysi orqali biz bu muallifni novator bir adib sifatida ko‘ramiz.

Adabiy mistifikatsiya usulidan foydalanib yaratilgan “Yaldo kechasi” romani esa, bemalol aytish mumkinki, zamonaviy o‘zbek adabiyoti uchun chinakam kashfiyotdir.

Aslida, Xayriddin Sulton har bir yangi asarini bitar ekan, Qodiriy ta’biri bilan aytganda, “mazmuni zamonasozliq” yo‘sinida yoki yoshlarga yoqmoq umidida yangilikka qo‘l urmaydi. Bil’aks, novatorlik avval-boshdan adib ijodiga xos asosiy xususiyatlardan biri edi, desak, adashmagan bo‘lamiz. Masalan, ijodiy fantaziya va fantasmagoriyaning ajoyib namunasi bo‘lgan “Ko‘ngil ozodadur” qissasida kambag‘al aspirant G‘ulomning ijara xonada goh Gulxaniy, goh uning betakror “Zarbulmasal” asaridagi qushlar bilan gurung qilib o‘tirishi yoki “Yozning yolg‘iz yodgori”da Nasibbekning qatl sahnasi jonsiz bir buyum – M. tilidan ifodalanishi ana shunday uslub izlanishlari mahsulidir.

Eng asosiysi, bu adabiy tajribalar shakl ketidan quvib, mazmunni unutishga olib kelmaydi, ya’ni mazmun shaklga qurbon qilinmaydi. Ayni paytda, muallif tafakkuri daryoning narigi qirg‘og‘idan emas, o‘zligimizdan, milliy zaminimiz, mumtoz adabiyotimizning asl sharqona majoz va falsafasidan quvvat olishi bois, bunday betakror badiiy talqinlar o‘quvchini ishontiradi. Yanayam muhim jihati – yozuvchi adabiyotimizga yangilik olib kirar ekan, biron joyda buni pesh qilmasligi, maqtanmasligi, aksincha, sokin daryo kabi ijod yo‘lini tinchgina davom ettirishi, albatta, ehtiromga sazovordir.

Xayriddin Sultonning keyingi asarlarida mana shu novatorlik uslublari yangi bosqichga ko‘tarilib borayotganini kuzatamiz. Adib g‘ayrat-shijoat bilan mana shunday adabiy izlanishlar asosida original asarlar yaratib kelayotgani yosh ijodkorlarimiz uchun ibrat va namunadir.

Albatta, bu xususiyat hali adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilar, yoritilar, deb umid qilamiz. Biz, o‘rni kelganda, kichik bir ta’kid bilan cheklandik, xolos.

AGARKI...

“Yaldo kechasi” romanini chop etgan “Xaybar-25” nashriyoti xodimlarining ma’lum qilishicha, kitob jamiyatimizda jiddiy rezonans uyg‘otib, ayniqsa, yoshlar orasida unga qiziqish tobora ortib borayotgan ekan.

Agarki, xalqimiz, farzandlarimiz ushbu asarni sinchiklab va tushunib o‘qisa, unda ko‘tarilgan mavzularni bugungi kun nuqtayi nazari bilan tafakkur qilib, zarur xulosalar chiqara olsa, davrning turfa hodisotlariga, zamon ziddiyatlariga befarq bo‘lmasdan, chuqur tahlil eta bilsa, xatarlarni to‘g‘ri anglab, oqni qoradan ajratsa, Vatan va millat qayg‘usi ularning ham ongi va qalbidan joy olsa, demakki, bu kitobdan ko‘zlangan maqsadga erishilmoqda, deb ayta olamiz.

Ikrom ISKANDAR

ABADIYAT ORALAB...

Izzatli alloma

O‘tgan asrning o‘ttizinchi yillaridan boshlab to hozirgacha aksar yozuvchilarning badiiy didi Abdulla Qahhorning estetik qarashlari ta’sirida shakllangan, desak xato bo‘lmaydi. Qahhorning keskin munosabatisiz qirqinchi-yetmishinchi yillarda adabiyotimizda xaltura yanayam ko‘proq bo‘lishi turgan gap edi. Chunki konfliktsizlik, soxta baxt taronasi rag‘batlantirilar, har qanday asardan (hatto besh-olti asr avvalgi turmush tasvirlangan bo‘lsa ham) bevosita yo bilvosita “kommunizm cho‘qqilari”ni tarannum etish talab qilinar edi. Yaxshiyam, Abdulla Qahhor bor edi, talay “tirik klassik”larning tomsuvoq puli uchun yozgan asarlariga ustara damidek keskir qalamidan uchgan ikki og‘iz gapi bilan haqiqiy baho berardi-qo‘yardi.

Bizga tengdosh adabiyotshunoslarning ilmiy zehniyati esa Izzat Sultonning, u kishining qavatida yurgan olimlarning so‘zshunoslikka oid munosabatlari orqali charxlangan. Chunki biz talaba, so‘ngroq yosh ilmiy xodim bo‘lgan kezlarda domla nafaqat adabiyotshunoslik, balki umuman filologiya sohasi peshvosi, oqsoqoli sanalar, har bir so‘zi ilmiy davralarda e’zozlab qabul qilinardi. Domla eng obro‘li adabiyot nazariyachisigina emas, shu bilan birga, umrining so‘ngigacha birinchi raqamli navoiyshunos, elliginchi yillarda iliqlik davri boshlanib Abdulla Qodiriyga yo‘l ochilgach, uning asarlarini nashrga tayyorlagan olimlarga bosh bo‘lgan siymo edi. Til va adabiyot institutining ilmiy kengashi bo‘ladimi, “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali tahrir hay’ati yig‘ilishimi, yo Fanlar akademiyasi prezidiumi anjumanimi, Izzat Sultonning chiqishlarini olimlar intiq kutishar, har bir nutqidan so‘ng har kim fikrda “bir nimalik” bo‘lib qolar edi.

Buning boisini o‘ylab, shunday xulosaga keldim: avvalo, Izzat Sulton hech qachon, hech qayerda keraksiz gapni, odamlarga ma’lum bo‘lgan narsani gapirmas, har bir so‘zi yangi, hali hech kim eshitmagan ilm bo‘lardi. Hatto kim bilandir chaqchaqlashib o‘tirganida ham zarurati bo‘lmagan gapni aslo aytmas, suhbatdoshini ham shunga undardi. Yaxshi esimda, fan doktori ilmiy darajasini beruvchi kengash raisi bo‘lgan Izzat Sulton, yoshi saksonlardan oshgan bo‘lsa-da, nihoyatda hushyor, minbarda “o‘tlab” ketayotgan olimlarning so‘zini bo‘lib, “Shoshmang, shu dissertatsiya bo‘yicha fikrlaringizni ayting, boshqa gaplarga o‘tmaylik”, deya, o‘zidan o‘n-o‘n besh yosh kichik, ammo qandaydir charchab qolgan olimlarni to‘g‘ri yo‘lga solar edi.

Ikkinchidan, ustoz o‘z fikrlariga hech kimga muyassar bo‘lmaydigan bir ifoda topishga mohir edi. Siz bilan bizning og‘zimizdan chiqsa jo‘n bir gapday qabul qilinadigan fikrlarni shunday aytar ediki, o‘sha mulohazaning hali biz payqamagan fazilatlari ham ochilib kelayotganday bo‘lardi.

Uchinchidan – xotira quvvati! Institut majlislarida nutq so‘zlar ekan, “professor falonchining 1946-yilda chop etilgan falon asarida mana bunday gap bor edi”, deya o‘sha iqtibosni rus tilida yod aytar, uning o‘sha manbada aynan shu tarzda bitilgani esa shubhasiz bo‘lardi.

Ilmiy fikrni eng ixcham va mukammal yetkazish Izzat Sultonga xos edi. Bunga fan doktori, professor Sharif Yusupovning hayotiy hikoyasini misol keltirish mumkin:

“Bir safar Izzat Sultonga olti yuz yo‘llik maqola yozib berishni so‘rab murojaat qildik, – degan edi Sharif aka “O‘zbekiston madaniyati” tahririyatidagi faoliyatini eslab. – Domla maqolani yozib yubordi, linotipda terdirsak, oz ham emas, ko‘p ham emas, naq olti yuz satr chiqib turibdi-da! Sahifada shuncha joy ajratilgan edi, quyilibgina tushdi. Biroq ertasiga ishga kelsak, TASSdan shu sahifaga oid bir surat yuborilgan ekan. O‘ta shoshilinch narsa bo‘lganidan, ha endi, o‘sha betdagi Izzat Sultonning maqolasidan biron o‘n satrini qisqartirsak, surat joylashadi-qoladi, degan to‘xtamga keldik.



Ammo... buni qarangki, to‘rt jurnalist ertalabdan peshingacha – besh soat muk tushib o‘tirib, maqoladan to‘rt yo‘l ham qisqarta olmadik. Har jumlaning “yuk”i bor – bir fikrni tashiydi, “kessangiz”, o‘sha fikr uzilib qoladi. Noiloj, boyagi suratni berishdan voz kechdik, nima bo‘lsa-bo‘ldi, deb tavakkal qildik. Holbuki, Maskov yuborgan biron narsani qoldirish o‘sha paytlarda katta siyosiy xato deb hisoblanardi...”

Izzat Sulton nafaqat adabiyot, balki til va uslub sohasida ham o‘rnak edi. 1978-1979-yillarda chop etilgan ikki jildlik “Adabiyot nazariyasi” kitobining domla qalamidan chiqqan boblarida chinakam akademik o‘zbek tili manaman deb ko‘zga tashlanadi. Men hatto unda “tayin” degan so‘zning ilgari hech ko‘rilmagan ma’noda qo‘llanganini, buning ustiga, o‘sha fikr mazkur so‘z orqali eng maqbul ifoda topganini ko‘rib, lol qolgan edim: “...adabiyotshunoslik tomonidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan faktik materiallar juda ham xilma-xil bo‘lib, ularning qaysi turi asosida bugungi adabiyotning spetsifikasini tayin etish kerak, degan savolga javob topmasdan turib, bu muammoni o‘rganishga kirishish mumkin emas”.

Til boyligi, ba’zilar o‘ylaganidek, leksikon ko‘pligidagina emas, balki mavjud so‘z va ifoda vositalaridan unumli foydalanishda ham namoyon bo‘ladi, yuqoridagi misol buni yaqqol dalillaydi.

Hammaga ma’lum, 1926-yilda professor Fitratning “Adabiyot qoidalari” nashr etilgan. Fitrat qatag‘onga uchragach, uning shogirdi Izzat Sulton oradan o‘n uch yil o‘tib, 1939-yilda birinchi “Adabiyot nazariyasi” kitobini e’lon qildi.

Adabiyot tarixida shogirdlarning ustoz boshlagan ishni davom ettirganiga misol ko‘p. Chunonchi, Cho‘lponga shaxsiy kotiblik qilgan Mirzakalon Ismoiliy shoir otilib, asarlari taqiqlanganidan keyin, oradan yigirma bir yil o‘tib, “Farg‘ona tong otguncha” romanini nashr qildirdi. Bu asarni, aslida, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanining davomi desa bo‘ladi. Qarangki, hatto ularning nomiga qadar mazmunan bir xil.

Izzat Sulton ham 1934-yildan to 1978-yilgacha – qirq to‘rt yil davomida adabiyot nazariyasi masalalaridan bir kun ham xoli yashamadi, asosiy ish joyi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining “Adabiyot nazariyasi” bo‘limi bo‘ldi. Butun bir avlod nazariyachi ilmiy xodimlarni yetishtirib, adabiyot nazariyasi fanini o‘zbek adabiyotshunosligining mustaqil ilm tarmog‘iga aylantirdi. Akademik “Adabiyot nazariyasi”ni nashr ettirdi va shu bilan ustozi Fitrat xotirasiga ulug‘ bir haykal tikladi.

Razm solsak, Izzat Sulton bir umr ustozi Fitratning yo‘lidan yurishga, unga mudom ergashishga, ishlarini davom ettirish va takomillashtirishga intilib yashaganini ko‘ramiz. Chunonchi, o‘zbek adabiyoti vakillaridan aynan Fitrat bilan Izzat Sulton adabiyot nazariyasi bilan shug‘ullangan va har ikkovi ham adabiyot nazariyasida “so‘z san’atining oliy turi” deb ta’riflanadigan dramaturgik ijod bilan bir umr mashg‘ul bo‘lgan.

Sababi, Fitrat ijod qilgan XX asr boshlarida aksari savodsiz bo‘lgan mehnatkash ommaga sahna asarlarining ta’siri beqiyos edi. Odamlarga yangi g‘oyalarni sahna orqali singdirish ma’qul topilgan, elni yangi madaniyat sari yetaklash uchun sahnadan foydalanish ko‘zlangan. Bu hol keyin ham o‘sha avj bilan davom etdi. Qirqinchi-elliginchi yillarda o‘zbek teatri (jumladan, o‘zbek dramaturgiyasi ham) yanada yuksaldi, davr olg‘a surgan dunyoqarashni elga singdirishda asosiy vositaga aylandi. Uyg‘un bilan Izzat Sultonning 1940-yilda sahna yuzini ko‘rgan “Alisher Navoiy” dramasi o‘zbek xalqiga shoirni tanitishda beqiyos rol o‘ynadi.

Navoiy va Bobur zamonidan keyin to XX asr boshlarigacha yurtimizdagi umumiy tushkunlik, jaholatning avj olishi bois, Alisher Navoiydek shoir ham avom nazaridan birmuncha uzoqlashib qolgani bor gap. Cho‘lpon 1924-yilda yozgan “500 yil” degan maqolasida buni ta’kidlab o‘tgan. Shuning uchun ham, Navoiyni elimiz qayta inkishof etishi darkor edi. Aynan “Alisher Navoiy” dramasidan so‘ng millionlab odamlar Navoiyni sevib qoldi, bu asardan olingan parchalar to‘ylarda, adabiy-badiiy anjumanlarda yod o‘qilardi. Ehtimol, undagi “Navoiy va Guli sevgisi” uydirmadir, Navoiy bilan Majididdin mojarolari ko‘pirtirilgandir, biroq sakson yil avval busiz iloji yo‘q edi. Baski, o‘tmishda yashab o‘tgan har bir odamni bizning zamonga emas, o‘zidan avvalgilarga qaraganda qanday yangi narsa berganiga qarab baholash lozimligi haqida aytilgan gap nihoyatda to‘g‘ri.

Bugungi kunda Izzat Sulton yozgan dramatik asarlarni (u “Alisher Navoiy” bo‘ladimi, “Imon”mi yoki “Ko‘rmayin bosdim tikonni”mi, boshqami) o‘qir ekanmiz, har qaysisi o‘zbek jamiyati oldida ko‘ndalang turgan katta bir masalani san’at asari orqali muhokama qilish, bunga elning o‘zini jalb qilish maqsadida bitilganiga iqror bo‘lasiz.

Masalan, “Ko‘rmayin bosdim tikonni” – turmush qurgan ikki ziyoli inson hayotidagi drama, hatto aytish mumkinki, garchi unda inson hayotining chuqur kolliziyalar oqibatida fojiali ravishda yakun topishi ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham, mohiyatan tragediyadir. Shuning uchun uni tomosha qilgan kishi ruhan tozaradi, ma’naviy ruh oladi. 1975-yilda sahnaga chiqqan bu asar 1958-yilda Chingiz Aytmatov o‘rtaga qo‘ygan masala – sevgisiz bo‘lsa ham turmush kechiravergan yaxshimi yoki kishi o‘z muhabbatini qidirishi darkormi, degan bahslarga o‘zbek adibining javobi bo‘ldi. O‘zbek turmushidan olingan bu asarda Izzat Sulton Chingiz Aytmatov qarashlarini yoqlab chiqdi.

Biroq, afsuski, asarning ana shu g‘oyasini aksar tomoshabinlar tushunmadi yo “hazm” qila olmadi. Shu to‘g‘rida o‘ylar ekanman, mening o‘zim ham u yo bu pozitsiyaga qat’iy o‘tishim dushvor (o‘zbekmiz-da, baribir). Lekin boshqa bir jihati bor: “Ko‘rmayin bosdim tikonni” dramasi, undagi barcha olijanob, qalbi pok personajlarning taqdir sinovlari qarshisidagi iztiroblari bois, tomoshabin ma’rifatini o‘stirishi, unga mo‘l-ko‘l ma’naviy oziq berishi e’tibori bilan juda balandda turadi. Ayniqsa, oilaviy mojarolardan masxarabozlik qilib bo‘lsa ham “kulgi” yasab chiqayotgan bugungi ko‘p sahna asarlari oldida...

Bu asarning estetik jihatdan fazilati shundaki, unda bironta ham “salbiy obraz” yo‘q, asar kolliziyasi “ijobiy” va “salbiy”larning kurashi negiziga qurilmagan, dramatizmni hayotiy vaziyatning o‘zi yuzaga keltirgan. Bu mazkur asarning badiiy yuksakligini ko‘rsatadigan muhim dalil.

Domlaning 1959-yilda chiqqan “Pesalar, maqolalar” degan kitobi bor. Albatta, o‘sha yillarda nashr masalalari qiyin bo‘lganidan, ikki kitob bir muqovada chop etilgan. Ammo shu nom, shu nashr Izzat Sulton ilmiy va ijodiy ishni baravar olib borganini ko‘rsatadigan oyinadir.

Ba’zilar, domla faqat ilm bilan, faqat nazariy tadqiqot bilan shug‘ullanganida fanga yanada ko‘proq hissa qo‘shgan bo‘lardi, deb yoki aksincha, Izzat Sulton badiiy ijodning o‘zigagina hayotini bag‘ishlasa, qancha muhtasham drama va tragediyalar yozishi mumkin edi, deb o‘ylashi mumkin. Balki bu mulohazalarda ham jon bordir. Biroq aksar odamlarning ijodiy qobiliyati turfa yo‘nalishli bo‘ladi. Biz da Vinchi yoki Gyote kabilarni emas, ustozi Fitrat domlaning o‘zini misol keltirsak kifoya qilar, u – yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos va siyosatshunos olim, davlat va jamoat arbobi edi.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligi ikki ulug‘ nazariyotchi olimning teran tadqiqotlari tufayli yuksak ilmiy-nazariy poydevorga ega bo‘ldi. Izzat Sulton har sohada, fanda ham, badiiy adabiyot yo‘nalishida ham ulug‘ ustozi Fitrat boshlagan ishlarni davom ettirdi va yangi davrda ularni imkoni boricha yangi bosqichga ko‘tarishga harakat qildi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

JAHON AYVONIDA

QO‘SHNILAR MUROSAGA KO‘NDIRILDI

Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov haqida hujjatli film ishlandi, unda O‘zbekiston Prezidenti ham tilga olindi.



Ikkinchi qismda qo‘shni davlat rahbari jurnalist Aybek Biybosunga bergan intervyusida 2021-yil aprel oyida Tojikiston bilan chegaradagi mojarodan so‘ng safdoshlari, jumladan, Milliy xavfsizlik davlat qo‘mitasi raisi Qamchibek Tashiyevning e’tirozlariga qaramay, Dushanbeda Emomali Rahmon bilan muzokaralar o‘tkazganini, biroq o‘n soat davom etgan muhokama natija bermaganini aytdi.

Sadir Japarov Tojikiston bilan kelishuvga erishishda Shavkat Mirziyoyevning hissasi katta ekanini ta’kidladi. Qirg‘iziston tashqi ishlar vaziri Jeenbek Kulubayev esa Shavkat Mirziyoyevni Markaziy Osiyo davlatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi yetakchilardan biri deb atadi.

BEKOR QILINGAN REYSLAR

Parij va Amsterdam aeroportlarida ekstremal qor yog‘ishi, kuchli shamol va havo harorati fonida yuzlab reys bekor qilindi. Amsterdamdagi Sxipxol aeroportida bir kunda 700 tadan ortiq reys bekor qilingan.

Shuningdek, Parijdagi Orli va Sharl de Goll nomidagi aeroportlarda uchish-qo‘nish yo‘laklari va samolyotlarning muzlashi sabab taxminan 140 ta reys qoldirildi.



TOSHQIN QURBONLARI

Indoneziyaning Shimoliy Sulavesi suv toshqini oqibatida kamida 14 kishi halok bo‘ldi, yana bir necha odam bedarak yo‘qolganlar ro‘yxatiga kiritildi. Bu haqda mamlakat Tabiiy ofatlarni yumshatish bo‘yicha milliy agentligiga tayanib, “Reuters” xabar berdi.



Qayd etilishicha, Siau orolida boshlangan yomg‘ir toshqinni keltirib chiqargan. Kamida 444 kishi mahalliy maktab va cherkovlarga evakuatsiya qilingan.

GRENLANDIYA O‘Z XALQIGA TEGISHLI

AQSH prezidenti Donald Trampning Grenlandiyani bosib olish haqidagi navbatdagi bayonotlaridan so‘ng, Yevropaning eng yirik davlatlari rahbarlari Daniya va Grenlandiya tomonida ekanini e’lon qildi.

“Grenlandiya uning xalqiga tegishli. Daniya va Grenlandiya o‘rtasidagi munosabatlarga oid qarorlarni faqat shu ikki tomon qabul qilishi mumkin”, deyiladi bayonotda.



AQSH 66 TASHKILOTNI TARK ETADI

AQSH global hamkorlikdan tobora uzoqlashar ekan, Tramp ma’muriyati o‘nlab xalqaro tashkilot, jumladan, BMT Aholishunoslik jamg‘armasi va xalqaro iqlim muzokaralarini belgilovchi BMT shartnomasidan chiqadi, deb yozmoqda Associated Press.



Oq uy saytidagi xabarga ko‘ra, Donald Tramp o‘z ma’muriyatining barcha xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, BMTga qarashli tuzilmalardagi ishtiroki va ularni moliyalashtirish masalalarini qayta ko‘rib chiqishi ortidan 66 ta tashkilot, agentlik va komissiyani AQSH tomonidan qo‘llab-quvvatlashni to‘xtatish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi.

YANGI NASHRLAR

UCH MUHIM LUG‘AT

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari tomonidan uch yirik manba – “O‘zbek tilining omonimlari lug‘ati”, “Turkiy tillarning harbiy terminlari lug‘ati” hamda “Bobur asarlari lug‘ati” tayyorlanib, nashrdan chiqdi.



Mazkur nashrlar yangi alifboda chop etilgan dastlabki lug‘atlar sanaladi. Ularda hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng qo‘llanayotgan minglab so‘z va so‘z birikmalari, fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlar, shuningdek, shevalarda ishlatiladigan, tarixiy va eskirgan atamalar qamrab olingan.

Sh.Rahmatullayev, H.Dadaboyev, Z.Xolmanova, M.Abdurahmonova, D.Muhammadiyeva, I.O‘razova hammuallifligidagi “O‘zbek tilining omonimlari lug‘ati” o‘z mazmuni va qamrovi bilan mavjud lug‘atlardan tubdan farq qiladi. Unda leksik omonimlar bilan bir qatorda frazemalar, so‘z birikmalari, tasviriy ifodalar hamda qo‘shimchalar omonimligi tizimli yoritilgan. Lug‘at o‘zbek adabiy tili, xalq shevalari va tarixiy manbalarda uchraydigan omonim so‘zlarni qamrab olib, omonimiya hodisasining shakl va ma’no o‘rtasidagi murakkab munosabatlarini ochib beradi.

Ayniqsa, Vatan himoyachilari kuni arafasida H.Dadaboyev, Z.Xolmanova, D.Muhammadiyeva hammuallifligida taqdim etilgan “Turkiy tillarning harbiy terminlari lug‘ati” ilk bor harbiy terminologiyani qiyosiy asosda tizimlashtirgan qomusiy manba sifatida yanada ulkan ahamiyat kasb etadi. Lug‘at harbiy terminologiyaga oid adabiyotlar, o‘zbek adabiy tili rivojlanish dinamikasini o‘zida mujassam etgan ilmiy, tarixiy va badiiy asarlarda qayd etilgan materiallar bazasida tuzilgan. Unda o‘zbek, qozoq, turk, turkman va ozarbayjon tillaridagi harbiy atamalar jamlangan. Ularning shakllanishi, taraqqiyot bosqichlari hamda zamonaviy rivojlanish jarayoniga xos fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari aks ettirilgan.

Qayd etilgan ikkala lug‘at Davlat tilini rivojlantirish departamenti, O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi homiyligida chop etilgan.

“Bobur asarlari lug‘ati” Davlatimiz rahbarining “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori asosida nashrga tayyorlangan bo‘lib, unda “Boburnoma”, “Bobur devoni” va “Mubayyin” asarlaridagi so‘zlar izohi berilgan.

Z.Xolmanova, Sh.Hayitov, D.Muhammadiyeva hammuallifligida ushbu nashr O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilgan bo‘lib, o‘zbek tili milliy korpusini tarixiy taraqqiyot davriga xos arxaik va tarixiy leksemalar bilan boyitishda, xalq iboralari, metafora, metonimiya kabi ko‘chimlarning o‘ziga xos namunalarini yoritishda ahamiyatlidir.

Uchala lug‘at barcha uchun birdek mo‘ljallangan bo‘lib, adabiyotshunoslardan tortib keng kitobxonlar ommasigacha ulardan samarali foydalanishi mumkin.

Otabek RAHIM

MILLAT FIDOYILARI

KO‘NGILDA QOLIB KETGAN GAPLAR



Oybekning yosh paytlariga tegishli bir rivoyat bor: yosh, nazarimda 4–5 yoshlik paytlarida biror yumush sabab bo‘lib, oyisi bilan tomga chiqadi. Ma’lumki, u paytlarda tomning usti somon suvoq bilan suvalib, yassi va tekis bo‘lgan. O‘shanda osmon musaffo, oy o‘zining saxovatli nurini yerga sochib, charaqlab turgan ekan. Tasavvur qilish mumkin, yerdagiga nisbatan tomda yana ham charog‘on ko‘ringan oyni ko‘rib bola hayratlarga tushgan.

– Oyi, oyi! Menga shu oyni olib bering! – degan ekan Oybek – yosh bola.

Shundan ma’lumki, bo‘lajak adib yoshligidan boshlab go‘zallik shaydosi bo‘lgan. Bu hol unga taxallus tanlashda ham qo‘l kelgani, shubhasiz. Oddiy, ma’nodor so‘z – Oybek!

* * *

Oybek shaxs sifatida ko‘p jihatidan menga ibrat bo‘ldi. U o‘z fikr va mulohazalarini ko‘p o‘ylab o‘tirmasdan o‘rtaga tashlayveradigan odam emas edi. Bu o‘rinda u nihoyatda vazmin edi. Xalqning “Yetti o‘lchab bir kes” degan maqoli go‘yo Oybek xislatlariga qarab aytilgandek sezilardi menga. Odamlarga munosabatda ham Oybek haqiqiy inson sifatida ko‘zga tashlanardi. Ko‘chalarda yurgan paytlarda uning qo‘li doim ko‘ksida edi. Adibning uyiga ijodkor, yozuvchi, shoirlar, ilm ahli ko‘p kelib turardi. Ular bilan muomalada ham Oybek o‘ta madaniyatli shaxs sifatida ko‘zga tashlanardi. Biror yetar-yetmaschilik yoki biror kamchilik yuzasidan jahli chiqib, fig‘oni falakka ko‘tarilgan paytlarini hech Oybekda kuzatgan emasman. Bir narsaga men doim qoyil qolardim. Oybek huzuriga kelgan har bir kimsa bilan ochiq chehra, ochiq ko‘ngil bilan suhbat qura olardi. Mehmon kattami, kichikmi, kim bo‘lishidan qat’i nazar, ko‘chagacha chiqarib, qo‘li ko‘ksida turgan holda kuzatib qolardi.

Barcha bu jihatlari bilan Oybek men uchun ibrat hisoblangan ulug‘ siymo edi.

* * *

Bugun o‘ylab ko‘rsangiz, Oybek XX asr adabiyotida butun bir davr, muhim bir bosqich ekanligini aniqlaysiz. Bu davr 30-yillarning oxiri va 40–50–60-yillardan iborat. Oybek mana shu davr ichida tinimsiz ravishda izlandi, ishladi va adabiyotimiz taraqqiyoti yo‘lida yirik-yirik asarlar bitdi. U yaratgan she’r va poemalar, uchta roman va qissalar faqat o‘sha davr adabiyotining yutug‘i emas, balki ijod tajribasi sifatida, butun bir maktab sifatida shakllangan ijodiy biografiya sifatida yoshlarga saboq bo‘lib xizmat qildi. XX asrning ikkinchi yarmida ijod qilgan qaysi bir yozuvchini olmang, ularning ijodini Oybek merosidan ajralgan holda tushunish qiyin bo‘lar edi.

* * *

Oybek butun hayotini Respublikamizda adabiyot va ilm taraqqiyotiga bag‘ishlagan va bu sohada o‘z kuch-qudratini ayamasdan ishga solgan, shu yo‘ldan borib ko‘p mashaqqatlarni boshidan o‘tkazgan, ko‘pgina dard va alamli kunlarni ko‘rgan ulug‘ siymodir! Oybek nomi xalq ongiga shu darajada singib ketdiki, katta-yu kichik bu nom aytilganida uning kim ekanligini bilmasdan turishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda u butun bir asr, ya’ni XX



asrning yirik arbobi edi, nazarimizda. Tug‘ilgan chaqaloqlarning kamida yuzdan biri Oybek nomi bilan ataladi. Oybek, Otabek adabiyotimizdan ko‘chib, xalq orasiga keng tarqalganligining nishonasidir bu. Ikkinchi jihatdan o‘zbek xalqining badiiy ijodga qay darajada yaqin ekanligining belgisi emasmikin bu hol?!

* * *

Oybek shunday ulug‘ ijodkorlardanki, u nisbatan qisqa umrining bir lahzasini ham bekor o‘tkazmagan. Yoshligidan ilm negizlarini egallashga harakat qilgan. O‘sha vaqtda savod, ilm uchun zarur bo‘lgan kitoblarni topib o‘qigan, o‘rgangan va har biridan o‘ziga kerakli xulosalar chiqargan. Shunday bo‘lishi o‘z-o‘zidan ma’lum. Qariyb o‘spirinlik chog‘laridan boshlab she’riyat mashqiga berilgan.


Bugun alohida ta’kidlash kerak bo‘lgan bir masala bor. Bu shundan iboratki, 30-yillarda mafkuraviy tazyiq o‘ta kuchaygan bo‘lib, endi tug‘ilib voyaga intilayotgan o‘zbek romannavisligi qattiq shikastlandi. Birinchi o‘zbek romannavisi qamoqqa olinib, totalitar mafkura qurboniga aylandi. Uning mashhur romanlari “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” qatag‘on qilindi. Hatto shu darajaga borib yetdiki, kimningki qo‘lida yoki uyida “O‘tkan kunlar” yoxud “Mehrobdan chayon” ko‘zga tashlanib qoladigan bo‘lsa, hech qanday so‘roqsiz hibsga olinavergan, ozodlikdan to‘la mahrum qilinaveradigan bo‘ldi. Shu qatorida Cho‘lpon ham hibsga olinib, uning “Kecha va kunduz” romani ham mafkuraviy jihatdan zararli asarlar qatoriga kiritildi. O‘sha davrning mashhur romanlaridan biri bo‘lmish Abdulla Qahhorning “Sarob” romani ham qatag‘onga uchradi. Shunday holat ro‘y berdiki, roman yozib uni kitobxonga taqdim qilish o‘ta xatarli ishdek ko‘rinadigan bo‘ldi. Ma’lum bir davr davomida ijodkorlar bu ishga qo‘l urishga qo‘rqishi tabiiy hol bo‘lib qoldi.

Bu yirik janr maydonidagi bir necha yillik jimlikdan keyin Oybekning “Qutlug‘ qon” romani chop etilib, kitobxonlar qo‘liga tegdi. Bu hol musaffo osmonda momaqaldiroqning guldurosidek tasavvur qoldirdi kitobxonlarda. Tabiiy, kitobning maydonga kelishi oson bo‘lmadi. Qator muhokama, munozaralar tashkil qilinib, muallif nomiga tanqidiy fikrlar ham aytildi. Bu fikrlarning bir qismi matbuot sahifalarida ham ko‘zga tashlandi. Romanda maishiy manzaralarning ko‘pligi va Rossiya inqilobchilarining obrazlari asar to‘qimasiga to‘laligicha kiritilmagani tanqid qiluvchilarning asosiy da’vosi edi. Biroq oddiy kitobxon bu yangi romanni zo‘r ishtiyoq va qiziqish bilan o‘qiy boshladi. Kitob qo‘ldan qo‘lga o‘tdi. Keng tarqaldi, nusxa jihatdan ham u yetarli darajada chop etildi.

Bu romanning paydo bo‘lishi shu jihatdan muhim ediki, butun bir yirik janrning uzilgan zanjiri yangidan ulandi. Ijodkorlar roman yozaverish mumkin ekan-da, degan xulosaga kelishdi. Bu hol Oybekka ilhom bag‘ishladi. Uning qalami tezkorlik bilan ishga tushdi. O‘tkir falsafiy ma’nodagi she’rlari bilan bir qatorda bir necha dostonlar yaratildi. Adib yildan yilga o‘sib, kuch va g‘ayratga to‘lib bordi. Shikastlangan roman janrining taraqqiyotini yana ham mustahkamlash burchi Oybekning zimmasida edi.

* * *

Adib Ikkinchi Jahon urushining ayni avjiga chiqqan yillari Alisher Navoiy hayotini aks ettiradigan “Navoiy” romani ustida ish boshladi. Tasavvur qilish mumkin. Adib “Qutlug‘ qon”da tasvirlangan voqealarni bolalik paytlarida o‘z ko‘zlari bilan kuzatgan bo‘lishi mumkin. Biroq o‘sha paytga nisbatan 500 yil oldin o‘tgan Alisher Navoiy siymosi bilan bog‘liq voqea va hodisalarni topib, bosh syujet ipiga bog‘lash oson ish emas edi. Buning uchun kutubxonalarda yoki kitobsevarlar javonlarida chang bosib yotgan qo‘lyozmalarni obdon o‘rganish zarur edi. Ijod otiga minib olgan Oybek bu



ishning uddasidan chiqa oldi. Romanning yozilishi uzoqqa cho‘zilmadi. Ikkinchi Jahon urushining ayni avjiga chiqqan yillari asar chop etildi. Tezkorlik bilan roman rus tilida ham nashr qilindi.

Roman Oybekka yangidan yangi shuhrat keltirdi. Bu kitob ham qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qildi. O‘zbek va rus kitobxonlari orasida keng tarqaldi. O‘zbekistonda va Rossiya matbuotida roman haqida maqolalar e’lon qilinib, uning bor fazilatlari targ‘ib qilindi. O‘sha yillardayoq Oybek bu roman uchun sobiq SSSRning davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Shunga qaraganda hamma ishlar joyida bo‘lib, roman janrining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shilgan hisoblanardi.

Biroq kutilmaganda mafkuraviy holat o‘zgardi. Markaziy boshqarmalar tomonidan jiddiy mafkuraviy kamchiliklar topilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi ziyolilarning bir qismi – yozuvchilar, bastakorlar, hatto ba’zi aniq fanlarning yetuk vakillari qattiq tanqid ostiga olindi. Ma’lum darajada totalitar mafkuraning 1937-38-yildagi kirdikorlari yangitdan ishga tushgandek edi. Turli-tuman tazyiqlar, matbuot va nashriyotlarning qattiq nazorat ostiga olinishi, ayrim yetuk arboblarning hibsga olinib, surgun qilinishi boshlab yuborildi. 50-yillarning boshlarida navbat Oybekka ham yetib keldi. 1952-yili O‘zbekiston Markazqo‘mi plenumida bir necha yozuvchilar qatori Oybekning nomi ham tilga olinib, qattiq tanqidga uchradi. Tanqidning ma’nosi shunda ediki, “Oybek go‘yo o‘tmishni ulug‘layapti”, ya’ni o‘rta asrdagi feodal tuzumga xos bo‘lgan hayotni qo‘msayapti. “Navoiy” romaniga nisbatan aytilgan bu tanqidiy fikrlar totalitar mafkura nuqtayi nazaridan o‘ta jiddiy va xatarli hisoblanardi. Shunday bir holat yuzaga keldiki, faqat “Navoiy” romani qismati emas, balki roman muallifining ham hayoti qil ustida turgandek bo‘ldi.

Voqea Oybekning qattiq betob bo‘lib qolishi bilan yakunlandi. Natijada kuch-g‘ayratga to‘lib-toshgan adib uzoq muddatga safdan chiqdi, tildan ajraldi. Uzoq davolanishlar natijasida adibning ongi, ish faoliyati qayta tiklangan bo‘lsa ham, betoblikning asorati uning tili va umumqiyofasida sezilib turardi.

Bugun “Navoiy” romaniga nazar tashlasak, unda zarracha ham mafkuraviy g‘alizlik borligini anglash qiyin. Romanda adibning asosiy maqsadi ulug‘ shoir Alisher Navoiyning keng va ko‘lamli ijodida o‘ziga xos insonparvarlik g‘oyalarini ochib berishdan iborat edi. Oybek shu vazifani a’lo darajada bajaradi.

* * *

Oybekning “Navoiy” romani “O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz”, “Sarob”lardan uslub jihatdan farq qiladi. Bu roman ortiqcha to‘qimalardan xoli bo‘lib, tarixan hayotda ro‘y bergan aniq ma’lumotlarni tadqiq qilgan holda yozilgan ilmiy romandir. Shu ma’noda “Navoiy” o‘zbek adabiyotining tarixida yaratilgan tom ma’nodagi tarixiy biografik romandir. Shu jihatlari bilan “Navoiy” o‘zbek romanchiligining yangi bosqichi edi, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday bo‘lsa ham, bu romanning badiiy to‘qimasida, yuqorida qayd qilganimizdek, ma’lum darajada to‘la haqiqatni bayon qilishda totalitar mafkuraning xalal bergan nuqtalarini ko‘rish qiyin emas.

* * *

O‘tgan asrning 80-yillarida Navoiy nomidagi Adabiyot va til instituti Oybek asarlarining 20 jildlik akademik nashrini tayyorladi va chop ettirdi. Adibning ko‘pgina asarlari chet tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Oybek Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulomlar bilan bir safda turib, XX asr o‘zbek adabiyotining taraqqiyotiga benazir hissa qo‘shgan ulug‘ siymodir. U badiiy ijod bilan barobar ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham band bo‘lgan. Bu jihatini hisobga olganda Oybek tom ma’nodagi akademik ijodkor edi.

Yuqorida Oybekning taxallusiga tegishli bir rivoyatni eslagan edik. Matnni shu rivoyatning sharhi bilan yakunlash ma’qul ko‘rinadi. Gap shundaki, Oybek XX asrning boshlarida, ya’ni 1905-yili bamisoli yangi oy singari dunyoga keldi. Vaqtlar o‘tib, u o‘sdi, ulg‘aydi. Umrining ma’lum bir davrida u yirik adib sifatida shakllanib, o‘zbek eliga yorug‘ nur taratdi. Biroq xuddi shu yillari Oybek totalitar mafkura tazyiqiga duch keldi. Tabiatda biz oyning tutilish hodisalarini ko‘rganmiz. Ayrim onlarda oyning bir qismi, ba’zan tugalligicha qorong‘ilashadi. Ilmiy ma’noda va xalqda buni “oy tutilishi” deb ataladi. O‘z adabiy taxallusini “oy” so‘ziga bog‘lab tanlagan adibning to‘lin oydek davriga erishgan paytlardagi qismatini o‘sha oy tutilishiga o‘xshatish mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, oyning tutilishi tabiiy hodisa. O‘zbek adabiyoti olamiga to‘lin oydek nur sochib turgan Oybekning mafkuraviy tazyiqqa duch kelib qolishi totalitar mafkura hukmronlik qilib turgan paytlarda uchrab turadigan ijtimoiy va siyosiy hodisalar bilan bog‘liqdir. Demak, yaxshi niyat bilan tanlangan taxallus go‘yo tabiatda ro‘y beradigan oy tutilishlarini eslatayotgandek ko‘rinadi bugun bizga.

Matyoqub QO‘SHJONOV,
akademik



“Zulmat zamonida yuzi yorug‘lar yaxshi ko‘rinadi.

Erix Mariya REMARK

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Multarxon Asqarxonov – 1896-yili Chust shahrida tug‘ilgan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg‘uloti bo‘lmagan. Aholi orasida millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, she’rlarga aksil-inqilobiy o‘zgartirishlar kiritganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 7-iyuldan hisoblangan.

Haqqul Husanboyev – 1880-yili Andijon shahrida tug‘ilgan. Tilmochlik bilan shug‘ullangan. Turkiston muxtoriyatini tashkil etilishi syezdida ishtirok etgan. 1917-yildan Andijon shahridagi “Turon” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Oktyabr to‘ntarishi davrida Andijon eski shahri va uning tevarak-atrofida ishchi va askar deputatlari soveti tashkil qilgan. 1917-yil oktyabrda bolsheviklar partiyasiga a’zo bo‘lgan. 1917-yil dekabrida Farg‘ona oblast ishchi va askar deputatlari sovetiga saylangan. 1919-yil 4-dekabrda Moskva shahrida V.I.Lenin huzurida bo‘lib suhbat qurgan. 1928–1930-yillarda Toshkent oblasti partiya va sovet tashkilotlarida mas’ul lavozimlarda ishlagan. 1937-yil hibsga olinib, 10 yil qamoq jazosiga hukm etilgan. 1947-yil qamoqda og‘ir kasallikdan vafot etgan.

Ahmadjon Ibrohimov – 1902-yili Qo‘qon shahrida hunarmand oilada tug‘ilgan, millati o‘zbek. Otasi to‘quvchi bo‘lgan. Ahmadjon Qo‘qon shahridagi 1-bosqichli musulmon maktabida o‘qigan. 1928-yil mart oyida Andijon shahar partiya komiteti tomonidan partiya safiga qabul qilingan. 1924–1926-yillari VLKSM a’zosi bo‘lgan.

U 1937-yil 18-mayda xodimlarni hisobga olish bo‘yicha to‘lg‘izgan shaxsiy varaqasida 1921-oktyabridan 1922-yil fevraligacha Qo‘qon uyezdiga qarashli Yaypan qishloq kasaba uyushmasida kotib, 1922-yil fevralidan 1923-yil iyunigacha oblast oziq-ovqat komitetining Bag‘doddagi vakili, 1923-yil iyulidan 1924-yil yanvarigacha Qudash qishlog‘ida oblast moliya bo‘limining moliya agenti, 1924-yil fevralidan 1924-yil dekabrigacha Qo‘qon shahrida teriga ishlov beruvchilar uyushmasining raisi, 1924-yil dekabridan 1926-yil sentyabrigacha oblast teriga ishlov beruvchilar uyushmasining raisi, 1926-yil sentyabridan 1927-yil noyabrigacha Toshkentda VSSPS O‘rta Osiyo byurosidagi o‘qishda kursant, 1927-yil noyabridan 1929-yil yanvarigacha Andijon shahrida okrug kasaba soyuzi raisi, 1930-yil sentyabridan 1931-yil iyuligacha “O‘zbek savdo”ning Andijon shahridagi vakili, 1931-yil iyulidan 1933-yil martigacha Yangiqo‘rg‘on rayon ijroiya komiteti raisining o‘rinbosari, 1933-yil martidan 1934-yil fevraligacha Chust rayoni ijroqo‘mi raisining o‘rinbosari, 1934-yil fevralidan 1936-yil maygacha MTS direktori, 1936-yil iyunidan 1937-yil 18-maygacha Norin rayoni MTS direktori vazifasida ishlaganini qayd etgan.

SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi yig‘ilishida Ahmadjon Ibrohimov aksilinqilobiy harakatda ayblanib, otuvga hukm qilingan.

Davlat Rizayev – 1903-yili Xorazmning Yangi Urganch shahrida tug‘ilgan. 1920-yilning fevralidan komsomol a’zosi bo‘lgan. 1921–1922-yillari xalq maorifi komissarligi ma’muriy xo‘jalik bo‘lim mudiri, 1922–1923-yillari Komsomol Markaziy komiteti kotibi, 1923–1924-yillari Xorazm Respublikasi Xalq maorifi komissari bo‘lgan. 1924-yil yanvaridan Urganch va Xonqa rayonlarida bosmachilikka qarshi kurashgan, Qoraqum operatsiyasida qatnashgan. 1929-yili Xorazm okrug partiya komiteti kotibi sifatida ishlagan. Moskvada Sverdlov nomli kommunistik universitetini bitirgan. Norin rayon partiya komiteti sekretari, Samarqand shahar partiya komiteti kotibi, “O‘qituvchi va maorif” jurnali muharriri, Qoraqalpog‘iston oblasti partiya komiteti, “Milliy istiqlol” tashkilotining ishtirokchisi, Usmonxon Eshonxo‘jayev boshliq millatchi va trotskiychi guruh a’zosi bo‘lgan. Qoraqalpog‘iston oblasti partiya komiteti kotibi bo‘lib ishlab turgan paytida qamoqqa olingan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi, 67-moddasi bilan ayblanib 1937-yil 4-avgustda hibsga olingan. 1937-yil 30-sentyabr O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi kasalxonasida yurak yetishmovchiligidan vafot etgan. Bu paytda u bor-yo‘g‘i 34 yoshda edi.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori


Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

O‘Y

Yozuvmi, yozuqmi?

Avvallari safardagi otaga, harbiy xizmatdagi akaga, sevgan yoriga yozilgan xat oddiy so‘z emas, qalb qo‘ri to‘kilgan jumlalar bilan bezalar edi. So‘z o‘ylab tanlanar, jumla qayta-qayta tuzatilar, hatto husnixatga o‘zgacha ahamiyat berilardi. Otaga yoki akaga yozilgan maktubda nafaqat mazmun, balki yozuvning o‘zi ham ahamiyat kasb etardi. Ayrim muhim so‘zlarni yozishda gul, qush yoki ramziy bezaklar bilan xattotlik usullaridan foydalanish, harflarning ravonligi, so‘zlar oralig‘i, hatto qog‘ozdagi tozalik ham so‘zga bo‘lgan hurmat belgisi hisoblanardi. Bu orqali inson so‘zni his qilar, uning ma’no yukini chuqurroq anglardi. Xat – o‘qiladigan emas, his qilinadigan matn bo‘lardi. Shu bois, yaxshi yozuv o‘quvchini charchatmas, aksincha, fikrni qabul qilishni osonlashtirardi.



Bunday xatlar yozish insonni kitob varaqlashga, gazeta-jurnal o‘qishga, shu orqali til imkoniyatlarini kashf etishga majbur qilardi. Har bir yangi xat avvalgisidan o‘zgacha bo‘lishiga intilish ko‘proq o‘qish, izlanishni talab qilar, so‘z boyligini kengaytirar, to‘g‘ri va ravon yozish qobiliyatini shakllantirar edi.

Ana shu madaniyat bilan biz gazeta tahririyatlariga ham xat yozardik. Maktublar e’tiborsiz qolmasdi. Tahririyat javob qaytarardi, ijodimiz namunasiga munosabat bildirardi. Chunki u xatlarda nafaqat biror maqola, muammo, balki madaniyat ham bor edi.

Bugun xat deyarli yozilmaydi. Yozilayotganlarini ham mutlaqo o‘qib bo‘lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarni maymun ko‘rsa qon yig‘laydi. Tahririyatga kelayotgan ba’zi xatlarda jumlalar parokanda, fikr chala, imlo va uslubga e’tibor yo‘q. Eng achinarlisi, bunday matnlarda na estetik did, na axloqiy mazmun seziladi.

Yozuvda ravonlik, fikrda mas’uliyat yo‘q, xatning husni haqida, xattotlik haqida gapirish u yoqda tursin, oddiy o‘qishli yozuv anqoga shafe. O‘qib bo‘lmaydigan nomalarga nima deb javob qaytarish mumkin? Nahotki, so‘z va tilning yukini his qilmaydiganlar soni tobora ortib bormoqda?

Bundan tashqari, jamiyatimizda g‘arb so‘zlarini ona tiliga qo‘shib ishlatishni madaniyat belgisi deb hisoblovchilarning ko‘payayotgani yana bir muammo. Ayrimlar har bir jumlani xorijiy so‘z bilan “bezamasa”, go‘yo fikri o‘ziga qadrsizdek tuyuladi. Bunday yondashuv til taraqqiyoti uchun emas, balki uning sofligiga putur yetkazishga xizmat qiladi. Ona tilida muqobili bor tushunchani begona so‘z bilan almashtirish – bilim belgisi emas, balki tilga nisbatan bepisandlikdir.

O‘z navbatida, tahririyatlar so‘z madaniyatining mezoni hamdir. Bu yerga kelayotgan har bir xat til me’yori, ifoda madaniyati, hatto yozuv estetikasi nuqtayi nazaridan ham baholanishini unutmasligimiz shart. Chunki gazeta – jamoatchilik oldidagi minbar. U yerdagi har bir so‘z, har bir jumla, har bir ifoda o‘quvchi tafakkuriga ta’sir qiladi.

Avvallari otaga, akaga, sevgan yoriga yozilgan xatda so‘z qanday ehtiyot bilan tanlangan bo‘lsa, har bir harf qanday e’tibor bilan bitilgan bo‘lsa, bugun tahririyatga yozilayotgan har bir maktub ham shunday mas’uliyat bilan yozilishi kerak.

Xat yozish – so‘z va shakl uyg‘unligini yaratish jarayonidir. So‘zni asrash – mazmun barobarida uning shaklini, estetikasini ham asrashdir. Chunki so‘z – millat tafakkuri, didi va axloqining jamlangan ko‘rinishi sanaladi.

Bahrom BOYMUROD

TILBILIM

BO‘RBOY

“Bo‘rboy” (“bo‘rbay”, “bo‘rvay”) degan so‘zni eshitganmisiz? Bu so‘z izohli lug‘atda yo‘q, demak, adabiy tilda ham yo‘q, lekin shevalarda bor, shuning uchun “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da bor.



Xo‘sh, *“bo‘rboy”* nima? Adabiy tildagi *“boldir”* bilan aynan bir ma’noga ega, ya’ni oyoq tizzasi yoki taqimdan to to‘piqqacha bo‘lgan qismi ba’zi shevalarda – *“bo‘rboy”* ataladi. Kimdadir *“taqim nima?”* degan savol ham tug‘ilishi mumkin, *“taqim – oyoqning tizza osti bukiladigan joyi”,* deb izohlangan lug‘atda, bu so‘z *“taqmoq”* fe’lidan yasalgan, misol: *“chavandoz uloqni taqimiga bosdi”* yoki *“qizning sochi taqimiga tushadi”*, lekin *“taqim”* ham keyingi paytlarda *“uzun soch”* bilan birga biroz unutilib bormoqda. *“To‘piq”* so‘zi “Devonu lug‘atit turk”da ikki o‘rinda: *“tobïq söɲo‘k”*, ya’ni *“to‘piq suyagi”* va *“tobïq”* – chovgan o‘ynaganda *“chovgan bilan uriladigan to‘p”*, deb tilga olinadi. Ya’ni, *“to‘piq”*ning asl ma’nosi – “*koptok, to‘p, yumaloq”;* boldir suyagining pastki qismi ham yon tomonga do‘mboq bo‘lib chiqib turgani uchun *“to‘piq”* nomini olgan, misol: *“Dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi”.*

“Boldir” so‘zi suyakka nisbatan ham ishlatiladi: *“boldir suyagi”, “son suyagi”,* lekin *“bo‘rboy”* – ko‘proq etga, payga nisbatan: *“Maxsi tor ekan, bo‘rboyimni siqdi”.* “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da Shahrisabz shevasidan ushbu misol keltiriladi: *“bo‘rvayimdek keladda man ko‘rgan ilon”.* Jizzaxda esa *“bo‘rbay”* deganda *“taqim”* tushunilar ekan: *“uloq chovganda burbayg‘a qisati”.*

“Boldir”dan farqli o‘laroq *“bo‘rboy”* shevada yana oyoq kiyimga nisbatan *“qo‘nj”* ma’nosida ham ishlatiladi: *“bo‘rboyi uzun etik” – “qo‘nji uzun etik”, “bo‘rboyli botinka” – “qo‘njli botinka”, “bo‘rboyi kalta etik”* va hokazo.

“Bo‘rboy” aslida mo‘g‘ul tillaridan turk tillariga o‘zlashgan, degan qarash ustuvor, chunki “Mo‘g‘ul tillari etimologik lug‘ati”da ham: “xalxacha: *borbi”* – tovon paylari; buyatcha: *“borbo”* – boldir; qalmiqcha: *“bərv”* – boldir paylari, taqim, deb izohlangan. Shuningdek, XIII asr obidasi, eski mo‘g‘ul tilida Chingizxon tarixi bitilgan va keyinchalik “Mo‘g‘ullarning yashirin tarixi” deb nomlanib ketgan asarning 255-paragrafida ham bu so‘zga *“boldir”* ma’nosida – *“borbi”* shaklida duch kelamiz *(“borbïn-ïyan kinggürü čabčïldusu”).*

Biroq bu so‘z faqat mo‘g‘ul tillarida emas, balki aksariyat turk til va lahjalarida ham bo‘lib, garchi tananing turli a’zolariga nisbatan ishlatilsa-da, ko‘proq *“pay”*, ya’ni *“birlashtiruv to‘qima”* ma’nosiga ega, misol uchun qozoq va qirg‘izlarda bu so‘z – *“borpay”* shaklida *“chov”* ma’nosida; oltoy, yoqut, qo‘miq, no‘g‘ay, boshqird tillarida: *“pay”, “birlashtiruvchi to‘qima”, “son”, “taqim”* kabi ma’nolarga ega ekan. Hatto bu so‘z usmonli turkchasining ba’zi shevalarida ham bo‘lib, *“qo‘lning bilagi”* ma’nosini bildirarkan. Ammo “Devonu lug‘atit turk” yoki “Qutadg‘u bilig” kabi manbalarda *“bo‘rboy”* so‘zi uchramaydi.

Alqissa, bu so‘zning turk tillarida ham *“bo‘rbay”, “borpay”, “porbuy”* kabi shakllarda mavjudligi va ko‘proq “pay” ma’nosini bildirishi, shaklan ham “pay”ni eslatishi, uning kelib chiqishi mo‘g‘ulchaga emas, balki oltoy yoki prototurk tilidagi qadimgi umumiy o‘zakka borib taqalishi mumkin, degan farazga ham olib keladi.

Abduvohid HAYIT

ORAMIZDAGI ODAMLAR

VAFO VA SADOQAT

Olmazor tumani Yangi Sebzor mahallasidagi mo‘jaz kutubxonada o‘tadigan tadbirga taklif etilgandim. Bu yerda kitoblarning ko‘pligi va rang-barangligi aqlimni shoshirdi. Hech joydan topa olmayotgan asarlarga ko‘zim tushganidan, sevinchim ichimga sig‘may ketdi.
Ushbu dargoh egasi Dilorom Hamdamova bo‘ladi. Dilorom opa naq 42 yil O‘zbekiston teleradiokompaniyasida ishlab, ko‘plab ko‘rsatuvlarni olib borgan. “Onalar maktabi” ko‘rsatuvi esingizda bo‘lsa kerak? Jurnalist pensiyaga chiqsa ham, ziyoli hech qachon pensiyaga chiqmaydi. Fidoyilik shunisi bilan ahamiyatliki, u mehnat daftarchasiga tushmaydigan mehnat va zahmatdan iboratdir.



Bundan bir qancha muddat avval qahramonimiz ko‘p qavatli uylar hovlisida kutubxona ochish harakatini boshlaydi. Avvalo, mahalladoshlar, ayniqsa, xotin-qizlar bo‘sh vaqtida yarim soat-bir soat kitob o‘qishi mumkin, qolaversa, shiddatli zamonda mutolaa ishtiyoqi bor, lekin tuman kutubxonasiga borolmaydiganlar qancha. Barchasini obdon o‘ylab ko‘rib, Olmazor tumani hokimligiga fikrini bildiradi. Tashabbus mutasaddilar tomonidan moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlanadi.

Dilorom opa faqat tashabbusni ilgari surmay, amalga oshishida ham jonbozlik ko‘rsatadi. Mahalla kutubxonasi fondining 90 foizi aynan opaning shaxsiy kutubxonasidan tashkil topgan. O‘zi esa kutubxonachi. Tengdoshlari kabi gap-gashtaklar-u sayr-sayohatlardan qolib, ikki mingta kitobga javobgar bo‘lish, ularni kitobxonlarga berish va qaytib olish, ta’mirlash, saqlash bilan band bo‘lish uchun odamga hazilakam hafsala, kitobga muhabbat va fidoyilik kerakmi? Opaning uyida ham doim stol ustida uch-to‘rt ta kitob kelgan varag‘ida ochiq turar ekan.

Shu atrofda o‘tirgan ikki qizning suhbati qulog‘imga chalindi.

– Kitobni o‘qib chiqdim, endi topshirishim kerak, – dedi biri.

– Topshirish juda qiyinmi? – dedi ikkinchisi.

– Sen Dilorom opani bilmaysan-da, juda sinchkov kutubxonachi. O‘qigan asaring haqida gapirib berishing kerak. Bo‘lmasa, qayta o‘qitadi...

Bugungi kunda kutubxonada 500 nafardan ziyod kitobxon muntazam a’zo. Barchasi kitobni qaytarishda opaning imtihonidan o‘tadi. Hatto, o‘qituvchidan tortib, mahalla mutasaddilari ham asar mazmunini gapirib berishdan qocha olmaydi.

Shinam javonlarda qo‘r to‘kib turgan jahon va o‘zbek adabiyotining durdona asarlari bugun Yangi Sebzor mahallasi ahlining ma’naviy mulkiga aylangan. Bu yerda har kuni ko‘ngillilar ishtirokida tadbir uyushtiriladi. Bir kun tibbiyot xodimlari kelsa, ertasi kuni maktab, keyin bog‘cha, undan keyin nuroniylar, onalar, yoshlar, qo‘yingki, Dilorom opaning tadbirlar taqvimi juda tig‘iz, biror bo‘sh kuni yo‘q.

Suhbatda ayon bo‘ldiki, Dilorom Hamdamovaning ajoyib falsafasi bor: dunyoda shifokor va o‘qituvchining xatosi kechirilmaydi, xuddi shunday, kutubxonachining ham xato qilishga haqqi yo‘q. Nega? Chunki har bir olingan ma’lumot va taassurot bir umr xotirada qolib ketadi, odamning fe’l-atvoriga, dunyoqarashiga, xatti-harakatiga ta’sir o‘tkazadi. Qolaversa, so‘rovchiga noto‘g‘ri kitob berib qo‘ydingmi, tamom, uni bir umr mutolaadan sovutib qo‘yish mumkin. Shuning uchun kutubxonachi psixolog bo‘lishi shart.

Mahalla kutubxonasiga kirar ekansiz, doim issiq choy, qand tayyor turadi. Dastlab u choy ichishga undaydi har bir kitobxonni. Bir paytlar buyuk bobomiz, jadidlar otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy ham Samarqanddagi “Behbudiya” kutubxonasida kitobxonlarni qaynoq shirin choy bilan siylagan ekan.

Yaqinda “Nuroniy” jamg‘armasi Toshkent shahar bo‘limi tashabbusi bilan poytaxtimizda “Yoshlar tarbiyasiga mas’ulmiz” shiori ostida o‘tkazilgan “Buvijonlar maktabi” tadbirida Dilorom opa “Vafo va sadoqat uchun” nishoni bilan taqdirlandi. Menimcha, bu mukofot opaning o‘z kasbiga, ziyolilik burchiga vafosi hamda kitobxonlikka sadoqati tufayli berilgan.

Faxriddin BOZOROV

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.
Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.
Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 539
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 526
Lotin yozuvida – 12 013
Media kuzatuvchilar – 74 732
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI